



**Tadqiqot UZ**



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 MART  
№26**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 31 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР**

<b>1. Kushayeva Shoxsanam Atanazar qizi</b> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOPONIMLARNING O'ZGARISHI.....	7
<b>2. Mirzayeva Diloromxon Mashrabjon qizi</b> EFTALLAR DAVRIDA MADANIY VA IJTIMOIIY HAYOTNING O'ZIGA XOSLIGI.....	9
<b>3. Ro'zimuhammad To'xtasinov Nurmuhammad o'g'li, Sultonova Dilovar Nematilla qizi</b> MOVAROUNNAHR FIQH MANBALARIDA DAVOLANISH VA UNDA QIMMATBANO TOSHLAR FOYDALANISH HUKMLARI.....	11
<b>4. Караманова Гулистан, Утемуратова Ханна</b> ИБРАТ МАКТАБИ.....	14
<b>5. Курбанова Садокат Жумабоевна</b> МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХОНЛИКЛАРИДА ВАҚФ ЕРЛАРИ ВА УЛАРИНГ АХАМИЯТИ .....	16
<b>6. Маҳаматхонова Мухлиса</b> ISO TERMIZIYNING ILMIIY MEROSIGA DOIR.....	18
<b>7. Холисова Обида Рахимовна</b> ТЕМУР ҚАДРЛАГАН 12 ТОЙФА.....	20
<b>8. Нурмаматова Анбар Насриддиновна</b> МАКТАБЛАРДА ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАДҚИҚОТЛАР ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ҚЎЛЛАШ БЎЙИЧА УСЛУБИЙ ТАВСИЯЛАР .....	22
<b>9. Samatova Yulduz Ubaydullayevna</b> DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .....	24
<b>10. Алланазаров Сирожбек Бекчан ўғли</b> ХОРАЗМ ЎЗБЕКЛАРИНИНГ АНТРОПОЛОГИК ҚИЁФАСИ ҲАМДА ЭТНИК ЖАРАЁНЛАР .....	26
<b>11. Esanova Barno Qulmurotovna</b> TARIX FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....	28
<b>12. Mustapayeva Mexrigul Erkinovna</b> TARIX TA'LIMIDA LOYIHA METODIDAN FOYDALANISH.....	29



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### MUSTAQILLIK YILLARIDA TOPONIMLARNING O'ZGARISHI

**Kushayeva Shoxsanam Atanazar qizi**

Ellikqal'a tumani XTB ga qarashli 5-DIUM tarix fani o'qituvchisi

Telefon:+99894-903-39-94

kushayevashoxsanam@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Ellikqal'a tumani toponimlarida yuz bergan o'zgarishlar va bunga nimalar sabab bo'lgani haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tabiiy toponim, rasmiy toponim, Leningrad, Kalinin, Partsezd, Ellikqal'a, toponim, Qirqqizobod, Amirobod, Bo'ston, Aqchako'l, Nurli tong.

Toponimlar tarixiy geografik joy nomlari har bir hududning o'ziga xos xususiyati, tarixi, aholining etnik tarkibi va boshqa ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Joy nomlari avvalo so'z, uning yaratuvchisi esa xalq. Qadimdan xalqimiz zukkosi va ma'naviyati, milliy qadriyatlarimiz mazmun mohiyati yurtimizdagi joy nomlarida ham o'z aksini topgan. Qadimiy qo'rg'onlar, shaharu qal'alar, qishloqlar va ovullar yo'q bo'lib ketgan, lekin ularning nomlari qolgan.

Mustaqillik yillari toponimlari haqida so'z qilmasdan oldin toponimlar va uning turlari haqida aytib o'tamiz. Toponimlarni umumiy tarzda ikki katta guruhga bo'lish mumkin: *tabiiy*, ya'ni *xalqona toponimlar* va *rasmiy*, ya'ni *sun'iy toponimlar*.

Tabiiy ya'ni xalqona toponimlar ko'p asrlar davomida tabiiy xolda yuzaga kelgan nomlar bo'lib, ularning ijodkori, yaratuvchisi xalqdir. Bu nomlarning ba'zilarini kim, qachon qo'ygan, nima sababdan ana shunday atagani hozirda unutilgan bo'lib, ularni aniqlash maxsus tadqiqotlarni talab qiladi. Xalqona toponimlar ko'p davrlar davomida tarix sinovlaridan o'tgan, silliqanib o'tgan qisqa va lo'nda so'zlarga aylangan. Shu sababli xalqona nomlarning aksariyati ma'lum o'rin, hududga jug'rofiy - fizikaviy obyektlarga xos bo'lgan xususiyatlar, belgilar. Nomning yuzaga kelishi uchun sabab bo'lgan biror voqea, hodisalar haqida bizga xabar berib turadi. Xalqona toponimlarga xos bu fazilat toponimiyaning asosiy talab va qonuniyatlariga nihoyatda mos xamda hamohangdir. Shu sababli ham xalqona toponimlar nihoyatda yashovchan, turg'un bo'ladi.

Tarixda shunday nomlar ham mavjudki, ularning yuzaga kelishi alohida shaxsning xohish – irodasiga, maxsus qarorlar, ko'rsatmalarga bog'liq bo'ladi. Mana shunday nomlarni rasmiy toponimlar deb yuritish mumkin. Rasmiy nomlarning aksariyati, odatda, o'zlari anglatayotkan joyning, obyektning tabiiy xususiyatini ifoda qilmaydi, balki unga sun'iy ravishda yopishtirilgan yorliqqa o'xshaydi. Bunday nomlarning yuzaga kelishi, qo'yilish asosi atalayotgan obyektдан tashqarida bo'lgan sabablar bilan izohlanadi. Bunday asos va sabablar ko'p xolda aloxida shaxs yoki kishilar guruhining istak va irodasi, siyosiy, mafkuraviy qarashlariga tayanadi. Sho'rolar davrida O'zbekiston hududidagi joylarga berilgan nomlarning aksariyati mana shunday rasmiy, sun'iy nomlar edi. Bu nomlarning sun'iyiligi quyidagilarda ko'rinadi.

Avvalo, sho'rolar davrida shaharlar, qishloqlar, ba'zi viloyatlar, tumanlar, ko'chalar, davlat va jamoa xo'jaliklari, idora va muassasalar va boshqalarga qo'yilgan nomlarning aksariyati yuqoridan turib berilgan ko'rsatmalar, maxsus qarorlar orqali tanlangan va berilgan edi. Eski tuzum mafkurasi bilan bog'liq nomlarning mazmuni siyosiy g'oyalardan iborat bo'lsa, ularning lisoniy materialini ko'p holda ruscha nomlar tashkil etardi. Masalan, Ellikqal'ada «Partsezd», «Leningrad», «Moskva», «Kalinin», kabi suniy toponimlar ko'plab uchrar edi.

Bitta nom o'nlab, yuzlab obyektlarga qo'yilaveradi. Masalan, 1971-yilda nashr qilingan «O'zbekiston SSR ning ma'muriy-hududiy bo'linishi» ma'lumotnomasida respublikadagi 895 ta qishloqning nomi keltirilgan bo'lib, ulardan 268 tasi (deyarli uchdan bir qismi) o'sha davr g'oyalari



bilan aloqador nomlardir. Bu nomlardan 43 tasi O'zbekiston hududida 2 martadan, ba'zilari 23 martagacha takror uchraydi. Ba'zi nomlarning bir viloyat yoki tuman hududida 3-4 martalab takror berilavergani kuzatiladi. Sho'rolarcha toponimik siyosatda shaxsning «nomini abadiylashtirish» deyilgan tushuncha asosiy rol o'ynardi. Bunda, asosan, marhum shaxslar ko'zda tutilardi. Ammo ushbu prinsip ham betayin edi. Chunki, 1960 yillarga qadar hali hayot bo'lgan shaxslarning nomlari xam «abadiylashtirib» kelindi. Sho'rolarning toponimik siyosati joylarga nom berish ishlarini ham markazlashtirdi. Natijada joylarga nom qo'yishdek mas'uliyatli va mo'tabar ish, tadbir xalq qo'lidan tortib olindi va o'sha davr mafkurasining quroliga aylantirildi. Bu ishda xalq ommasining ishtiroki, tashabbusi bo'g'ildi va natijada asta-sekin kishilar bu ishga loqaydlik bilan qaraydigan, hatto e'tibor ham qilishmaydigan bo'lib qoldi. Bu hol joylarga nom berishning xalq tomonidan asrlar davomida yaratilgan nom berish udumlari, an'analari, tamoyillarining susayishi hamda asta-sekin unutilishiga olib keldi. Shu sababli tarixiy nomlarni qirg'in qilish — bu xalq toponimiya tizimidagi milliylikni, milliy ruhni, lisoniy o'ziga xoslikni tugatish degan so'zdir.

2011-yil 4 mart oyida va 2013-yil 28-dekabr oyida qabul etilgan «O'zbekiston geografik obyektlarning atamalari haqida» va Qoraqalpog'iston Respublikasi «Geografik obyektlarning atamalari haqida» Qonunlari toponimika sohasiga va tadqiqotchilarga yanada katta vazifalarni qo'ydi. Toponimik obyektlarni to'plash, turlarga bo'lish, aniqlash, yozilishini va aytilishiga e'tibor qaratish, atamalarni muhofaza qilish masalalari qonunda yaxshi yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida»gi 295-sonli qarori 4-bandi ijrosi yuzasidan o'tkazilgan inventarizatsiya natijalarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, O'zbekiston Respublikasining «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida»gi Qonunining 4-moddasi talablariga javob bermaydigan geografik obyektlarning nomlarini o'zgartirish, tarixiy nomlarni tiklash va Qonun talablariga javob beradigan, lekin nom berilishi to'g'risida davlat boshqaruvi organlarining qarori mavjud bo'lmagan nomlarni tasdiqlash maqsadida Ellikqal'a tumani hokimi Ne'matilla Xudoyberganov 2013-yil 29-oktabrda №573/10 sonli qaror chiqardi. Qarorga muvofiq bir qancha OFY, MFY va ko'chalarning nomlari o'zgartirildi. Jumladan, Avvalgi G'.Odilov - Amirobod OFY, Toza Amirobod – Toza bog' OFY, Bog'yop – Navoiy OFY, al-Xorazmiy - Guldusun OFY, Qirqqizobod - Qirqqiz OFY, Qirqqiz – Guliston OFY, Bo'ston – Ellikqal'a OFY, Yangiyer – Aqchako'l OFY, Sadvin – Sharq yulduzi OFY, Buxan Merey – Qizilqum OFYga aylantirildi. Bo'ston MFYdagi Yo'ldosh Qurbanov ko'chasi Amir Temur ko'chasiga, Navoiy MFYdagi Energetiklar ko'chasi Guldursun ko'chasiga, Semashko ko'chasi Jaloliddin Manguberdi ko'chasiga, Abay MFYdagi Amangeldi ko'chasi Shoh Vazamar ko'chasiga, Qasim Nurumbetov ko'chasi Kamoliddin Behzod ko'chasiga aylantirildi. Sarabiy OFYdagi Toma aholi punkti Nurli tong deb o'zgartirildi. Bo'ston shahridagi Jiyen Jirov ko'chasiga birinchi prezidentimiz Islom Karimov nomi berildi.

2020-yil 24-fevralda Xalq deputatlari Ellikqal'a tumani kengashining «Ellikqal'a tumanida joylashgan geografik obyektlarga nom berish to'g'risida» gi 2/9 -sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qaror asosida tumandagi barcha ko'chalarning nomlari qayta ko'rib chiqildi hamda talabga javob bermaydigan bir qator nomlar o'zgartirildi. Ko'chalarda bir qator yangi nomlar paydo bo'ldi (masalan, Nashriyotchilar, Yoshlar kelajagi, Ilmlilar, G'ayratiy, Sayilgoh, Nuroniyar) barcha uylarlarga nom berildi.

Ellikqal'a tumanida joy nomlarini o'rganish va qo'yish masalasida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. Tuman toponimik obyektlarga nom berish komissiyasi shahar va tumanlarda toponimik obyektlarni o'rganish ilmiy, xolisona hamda xalqimiz an'analari, urf-odatlariga, qadriyatlariga e'tibor bergan holda tarixiy manbalarga tayanib, doimiy tarzda tadbirlar o'tkazib kelmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. Т., 2005. 34 бет.
2. Бегматов Э. Жой номлари маънавият кўзгуси. Т., 1998., 34 бет.
3. Халқ сўзи газетаси. 2011 йил. март, Еркин Қарақалпақстан газетаси газетаси. 2014 жыл 14-январь.
4. www.lex.uz



## EFTALLAR DAVRIDA MADANIY VA IJTIMOY HAYOTNING O'ZIGA XOSLIGI

**Mirzayeva Diloromxon Mashrabjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti, talaba

+99891 121 22 67

dilorommirzayeva2@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada eftallar davrida Markaziy Osiyodagi madaniy hayot, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, yerga egalik qilish masalalari hamda bu boradagi sinfiy ziddiyatlarning aholi hayotiga o'tkazgan ta'siri haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** eftallar, kashovarlar, Mazdak qo'zg'oloni, melodiylar, Tuproqqal'a.

Ilk o'rta asrlar tarixi manbalarini o'rganish jarayonida eftallar davlati e'tiborimizni tortmay qolmaydi. Eftaliylar davrida asta-sekin yerga egalik qilish tartibida yangicha munosabatlar shakllana boshladi. Bu davrga kelib sinfiy tabaqalanishning keskin kuchayishi orqasida ayrim mulkdorlarning mavqei ko'tarilib, ular jamoaning oddiy a'zolarini o'z qo'l ostiga kiritib, mulklarini ular hisobiga kengaytirib birganlar. O'zining chek yeridan ajralib, bu xil mulkdor dehqonlar ta'siriga tushib, ularning yerlarida ishlashga majbur bo'lgan kishilar kadivarlar, ya'ni ijaradorlar deb atalgan. Shuningdek erkin jamoa asosida dehqonchilik qiluvchi aholi – kashovarlar ham mavjud edi. Kadivarlar boy dehqonlar foydasiga ma'lum to'lov va majburiyatlar asosida ishlab berganlar. Shu bilan birgalikda bu davlatga hali patriarxal-qulchilik munosabatlarining qoldiqlari ham mavjud edi. Chunonchi, boy dehqonlar mulklarida juda ko'plab kullar bo'lganligi, ulardan turli yumushlarda keng foydalanilganligi tarixiy manbalarda tilga olinadi.

Bu davrda Eron va Turon hududlarida sinfiy ziddiyatlar kuchaya bordi. Yirik mulkdorlar, zodagonlar zulmi va asoratining ortishi aholi quyi tabaqalari huquqining poymol etilishi, ularning ayovsiz ekspluatatsiya qilinishi pirovarida ijtimoiy adolat va haqqoniyat yo'lidagi xalq harakatlari, g'alayonlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. VI asr birinchi choragida yuz bergan Mazdak qo'zg'oloni buning yaqqol ifodasidir. Mazdakchilar « Z » harfi bilan boshlanadigan 4 narsaning aholi o'rtasida teng baham ko'rilishini yoqlab chiqqandilar : Zamin (yer), Zar (oltin boylik), Zo'rlik (kuch-hokimiyat) va Zan (xotin). Mazdakchilar ilgai surgan bu xil go'yalardan shuni anglash mumkinki, ular ijtimoiy adolat tushunchasini birinchi o'ringa qo'yib, bunda yer-mulk, boyliklarni aholi o'rtasida barovar taqsimlash talabini ilgari surganlar. Ular davlat hokimiyati tomonidan fuqarolarning dahlsizligi va qonuniy huquqlarni himoya qilinishini, ayollar tengligini yoqlaganlar. Biroq, o'sha davrda sinfiy tabaqalanishtobora kuchayib, mulkiy tegsizlik avj olayotgan bir paytda mazdakchilik go'yalarini tantana qilish yoxud hayotga tadbiiq etilishi mumkin emas edi. Shu bois ham mazdak qo'zg'oloni tez orada hukmron tuzum kuchlari tomonidan bostirildi. Mazdak va uning ko'plab tarafdorlari qo'lga olinib qatl etildi. Shunga qaramay Eron va Turon aholisining keng qatlamlari orasida mazdak g'oyalari uzoq vat saqlanib, ularning haq, adolat yo'lidagi kurashlariga xizmat qildi.

Eftaliylar davrida aholining bir qismi ko'chmanchi chorvadorlar bo'lib, ular chorvachilik, yilqichilik bilan shug'ullangan. Suv xavzasi, daryo bo'ylariga yaqin hududlarda dehqonchilik rivoj topib bordi. Jumladan, Xorazm, Sug'd, Chag'aniyon va Toshkent vohasida dehqonchilik madaniyati salmoqli o'rin tutgan. Darg'om kanali, Eski Angor, Zang kanallari singari suv inshootlari dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Bu davrda yangi tipdagi ko'rkam va gavjum shahar-qal'alar vujudga keladi. Xorazmdagi Berkutqal'a, Bozorqal'a, Toshkentdagi Oqtepa shular jumlasidandir. Bir necha oilalardan tashkil topgan mazkur manzilgo'lar qalin paxsa devorlar bilan o'ralgan.

Eftaliylar davri madaniyati xususida gap borganda shuni qayd etish lozimki, bu paytlarda o'lkada juda ko'p moddiy va ma'naviy yodgorliklar bunyod etiladi. Bu davrning moddiy madaniyatiga oid yodgorlik sifatida Xorazmdagi Tuproqqal'a to'g'risida ma'lumot keltirib o'tish joizdir. Uning tuzilishi to'g'ri burchakli bo'lib (500x 360 m), gumbazsimon yo'lakli va burjli mudofaa devori bilan o'ralgan. Devorning janubiy qismidagi darvozadan ibodatxona tomon asosiy ko'cha o'tgan. Ko'ndalang tushgan ko'chalar shaharni 10 ta mavzega boigan. Tuproqqal'aning shimoli-g'arbiy qismida maxsus ko'tarma supa ustiga xom g'ishtdan saroy qurilgan. Unga yonma-yon ark binosi joylashgan. Bundan tashqari 100 ga yaqin turarjoy, xo'jalik binolari va 8 ta saroy zali mavjud bo'lgan. Qal'aning janubi-sharqiy burchagidagi 4 ta xonada teri va yog'ochga yozilgan qadimgi



Xorazm yozuvidagi 80 dan ortiq hujjatlar topildi.

Shuningdek, Eftaliylar davri qo`shiq-lari va epolari Firdavsiyning mashhur «Shohnoma»sida ham o`z ifodasini topgan. Eftaliylarda kishilar turli dinlarga e`tiqod qilganlar. Eng keng tarqalagan din-zardushtiylik bilan bir qatorda budda dini ham ancha rasm bo`lgan. Xullas Eftaliyla davrida o`lkamiz odamlari o`ziga xos boy madaniy va ma`naviy turmush tarzini yaratib, undan bahramand bo`lishga harakat etganlar. Ayni chog`da ular o`zlaridan keyingi avlodlari uchun ham munosib iz qoldirganlarki, bunga ularning davriga oid turli hududlardan topilgan ko`plab noyob topilmalar, asori atiqalar guvohdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Vamberi G. Buxoro tarixi yoki eng qadimgi transoksanislar hozirgi kunga qadar. SPb., 1873.S. 110
2. Ilyasov J. Eftalitlar muammosiga oid ba`zi fikrlar // Transsoksiana. Tarix va madaniyat. Sho`ba maqolalar. T., 2004.S. 117.
3. Karomatov H. O zbekistonda moziy e`tiqodlar tarixi. T.: 2009 yil.
4. Qurbonov A. Eftalitlar (tarixga oid insholar). Sankt-Peterburg, 2006. S.28.



## MOVAROUNNAHR FIQH MANBALARIDA DAVOLANISH VA UNDA QIMMATBAHO TOSHLAR FOYDALANISH HUKMLARI

**Ro'zimuhammad To'xtasinov Nurmuhhammad o'g'li,**

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islom tarixi va  
manbashunosligi IRCICA" kafedrası 1-bosqich tayanch doktoranti.  
Tel: (+998 91) 1754964 (+ telegram), rozimuhammad4964@gmail.com

**Sultonova Dilovar Nematilla qizi,**

"Jo'yborikalon" ayol-qizlar o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi  
Tel: (+998 91) 4776696 (+ telegram), sultonovadilovar1994@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada erkak va ayollarning islom shariatida qimmatbaho toshlardan davolanish va muolaja maqsadida foydalanish hukmlari va bu boradagi mazhablar o'rtasidagi ixtiloflar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** *Islomda davolanish mazhab; tillo tish qo'yish; davolanish hukmi; protez hukmi.*

Inson zoti dunyoga kelar ekan, hayotida turli-tuman qiyinchiliklar, mashaqqatlar, bemorlik, kasalliklarni boshdan kechiradi. Bemor bo'lgan inson, albatta, kasallikni oldini olish, uni muolaja qilishga harakat qiladi. Zero hayotni davom ettirish, go'zal hayot kechirish uchun sog'lik muhim sanaladi.

Shuningdek islom shariatida ham bemor bo'lgan insonni davolanishga targ'ib qiladi. Zero Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.: "Alloh biror kasallikni tushirar ekan, uning shifosini ham beradi", deganlar<sup>1</sup>. Yana bir hadislarida esa: "A'robiylar Nabiy s.a.v.dan: "Yo Rasulalloh davolansak bo'ladimi?", deb so'rganlarida u zot: "Ha. Davolaninglar Allohning bandalari", dedilar"<sup>2</sup>.

Ushbu hadislariga asosan aksariyat islom shiati faqihlari islomda davolanish muboh, joiz amal ekanini aytib o'tganlar.

Quyida davolanish va muolaja uchun qimmatbaho toshlardan foydalanishning shar'iy hukmi haqida bauon qilinadi.

Insonlar qimmatbaho toshlardan odatda zeb-u ziynat buyumlari sifatida foydalanadilar. Islom shariatida zeb-u ziynat buyumlaridan foydalanish uchun ayollarga ruxsat berilgandir. Erkaklarga esa, nozik xilqatli ayollarga xos bo'lgan, erkaklik viqori va salobatini yo'qotishga sabab bo'ladigan taqinchoqlarni taqishga ruxsat berilmagan. Ammo qimmatbaho toshlardan faqatgina zeb-u ziynat buyumi sifatidagina foydalanilmaydi. Tibbiyotda muolaja uchun ham qimmatbaho toshlar, tillo va kumushlardan keng foydalaniladi. Muolajaga ayollar bilan bir qatorda erkaklar ham muhtojdir. Masalan tishni da'volash, a'zolari protez qilish va boshqa holatlar.

Shunday holatlarda insonlarning ehtiyoji borligi e'tiborga olinib, uning hukmi erkaklar uchun ta'qiqlangan – haromlik doirasidan chiqib, ruxsat berilganlik – mubohlik doirasiga kiradimi? Tishlarni davolashda tillodan foydalansa bo'ladimi? Quyida aynan shu savollarga javob beriladi.

Islom huquqi – fiqh manbalarida aytib o'tilganidek, haqiqatdan, insonlar tishlarni mahkamlash, yangi tish qo'yish, tishni ta'mirlash kabi ishlar uchun tillo kumushdan avval ham hozir ham keng foydalanyotganini ko'rish mumkin. Shuningdek tibbiyotda qo'l, oyoq, yoki barmoqlar kabi inson a'zolari ayrim sabablarga ko'ra yo'qotilsa, yoki kesib tashlansa o'rniga protez a'zolar ham tillo yoki kumushdan qo'yilyapti. Faqihlar (fiqh ilmini puxta o'rgangan shaxslar) avvalgi zamonlardayoq ushbu masalalarning yechimlarini aytib, kitoblarda bitib ketishgan. Shuning uchun buning hukmini ana shu kitoblardan topish mumkindir. Lekin bu ham fiqhiy mazhablarning turlichaligiga qarab farqlanadi.

Hanafiy mazhabi asoschilaridan bo'lgan imom Abu Hanifa (80-150)ning nazdida qimirlab, zaiflashib qolgan tishlarni tillo bilan emas kumush bilan qotirib, mahkamlab qo'yish mumkin<sup>3</sup>. Burunni esa, tillodan ham yasatsa bo'ladi. U kishi o'zlarining gaplariga dalil sifatida quyidagi hadisni zikr qiladi:

<sup>1</sup> Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy. 5678-hadis

<sup>2</sup> Ibn Moja. Sahihi ibn Moja. 2789-hadis.

<sup>3</sup> Fatavoyi hindiyaa. 5\336. Ayniy. Banoya. 9\237.



“Urfuja ibn As’ad<sup>1</sup> (r.a.) Kilob kuni<sup>2</sup>da burni kesilib ketadi. Shuning uchun da’volanish maqsadida kumushdan burun yasatib olsa, u nasib, hidlanib ketadi. Shunda Nabiyy (s.a.v.) unga tillodan burun yasatib olishga ruxsat berganlar”, - deyilgan<sup>3</sup>.

Hadisda Urfuja (r.a.) ni kumushdan burun yasatib olishga ruxsat berilgani aytiladi. Tillodan burun yasatishga esa, iloji bo’lmagani, zarurat bo’lgani uchungina izn berildi. Shunday ekan tishlar va boshqa a’zolari da’volashda ham avvaliga kumush bilan davolanish bilan kifoyalanish lozim. Zarurat bo’lmas ekan tillo tish qo’yishga ruxsat berilmaydi. Faqihlarning “Kumush tillo kabidir”, - degan gaplari to’g’ri emas. Chunki ikkisinining haromlik darajasi bir-biridan farq qiladi. Zero ayrim o’rinlarda tilloga ruxsat berilmagan bo’lsa, kumushga ruxsat berilgandir<sup>4</sup>.

Mazhabboshi Abu Hanifadan qilingan yana bir rivoyatda tillo tish qo’yishning zarari yo’q deyilgan<sup>5</sup>.

Ba’zi hanafiy mazhab sohiblari, xususan, imomayn – Abu Yusuf (113-182) va Muhammad (131-189), molikiy, shofeyy va hanbaliy mazhab sohiblari tishni tillodan ham, kumushdan ham qoplatish, shuningdek, burunni tillodan qo’ydirish mumkin deganlar<sup>6</sup>.

Ularning dalillari esa, quyidagichadir:

Yuqorida aytib o’tilgan Urfuja (r.a.)ning hadisida Rasululloh (s.a.v.) o’zidan zararni ketkazish uchun tillodan foydalanishga ruxsat berdilar. Shunga ko’ra kishining tishlari qimirlab, yemirilib qolishi ham zararlardan biridir. Shuning uchun ham uni tillo yoki kumush bilan qoplatish mumkin bo’ladi. Ularning biriga ruxsat berib, ikkinchisini taqiqlashning ma’nisi yo’q. Ishlatish haromligi borasida ikkisi ham barobar edi<sup>7</sup>.

Bir qancha xabarlarda kelishicha, ko’plab ahli ilmlar ham tishlarini tillo bilan qoplatgan ekanlar<sup>8</sup>.

Anas ibn Molik (r.a.)ning farzandlari Baytullohni atrofida qo’llarida ko’tarib olib tavof qildirar edilar. Ular otalarining tishlariga tillo qoplatgan edi<sup>9</sup>.

Sahoba Anas (r.a.)ning tisharini tillo bilan qoplatib olganlari bu ishning muboh ekaniga dalolat qiladi. Buyuk sahoba Rasululloh (s.a.v.)ning xizmatkori, u zotga eng yaqin zot bu ish muboh bo’lmasa, qilmagan bo’lar edi.

Hasan (r.a.) ham tishlarini tillo bilan qoplatgan ekanlar<sup>10</sup>.

Ibn Jurayj<sup>11</sup>dan rivoyat qilinadi: “Ibn Shihob<sup>12</sup>ga tishlarni tillo bilan mahkamlash mumkinligi haqida savol berilganini eshitdim. Shunda u: “Zarari yo’q. Abdulmalik ibn Marvon ham tishlarini

<sup>1</sup> Urfuja ibn As’ad ibn Kurob. Ibn Safvon Taymiy Basriy. Abdulloh undan hadis rivoyat qilgan. Johiliyat vaqtida arablar o’rtasida bo’lgan mashhur janglardan biriga qatnashgan. (Yusuf ibn Abdulloh ibn Abdulbar. Al-istiy’ob fi ma’rifatil as’hob. – Bayrut: “Dorul jiyil”, 1992. 3\1063).

<sup>2</sup> Johiliyat – Islomdan avval arablar orasida bo’lib o’tgan janglardan biri. Bu jang tarixda ikki marotaba bo’lgan biri hijratdan avvalgi 80 yillarda bo’lgan bo’lsa ikkinchisi 57 yillarga to’g’ri keladi. Bu jang Kilob vodiysida bo’lgani sabab shu joyga nisbatlanadi. Jang bo’lgan kun Kilob kuni deb ataladi. “Ayyomul arab fil johiliyya – “Johiliyat vaqtida arablar boshidan o’tkazgan kunlar” kitobidan. – B. 56.

<sup>3</sup> Sunani Abu Dovud. Uzuk kitobi. Tishlarni tillo bilan mahkamlash bobi. 4\92. Sunani Nasoiy. (Suyutiyy sharhi) Ziynat kitobi. Burniga shikast yetgan odam tillodan burun yasatib olishi mumkinmi bobi. 8\164. Sunani Termiziy. Libos kitobi. Tishlarni tillo bilan mahkamlash bobi. 3\152.

<sup>4</sup> Marg’inoniy. Hidoya. 4\82. Ibn Obidin. Roddul muxtor. 9\521.

<sup>5</sup> Ayniy. Banoya. 9\237.

<sup>6</sup> Kosoniy. Badoe. 5\132. Ibn Obidin. Roddul muxtor. 9\521. Soviy. Bulg’atus solik. 1\24. Hoshiyatu Dasuqiyy. 1\63. Navaviy. Rovzotut tolibin. 2\262. Shurbiiyniy. Mug’nil muhtoj. 1\391. Bahutiyy. Sharhi muntahol irodod. 1\406. Mar’a ibn Yusuf. G’oyatul muntaho. 1\316.

<sup>7</sup> Kosoniy. Badoe. 5\132.

<sup>8</sup> Termiziy o’zining Sunan kitobida ayan shu mvzuda hadislarni keltirib: “Bir qancha ahli ilmlar tishlariga tillo qoplatganlar. Urfuja (r.a.)ning hadisi ularning foydasiga hujjat bo’ladi”, degan. (Qarang: Sunani Termiziy. 3\152)

<sup>9</sup> Tabaroniy. Mujamul kabir. Anas ibn Molik (r.a.)ning sifati va ko’rinishlari bobi. 1\241.

<sup>10</sup> Musannafu ibn Abu Shayba. Libos kitobi. Tishlarni tillo bilan mahkamlash bobi. 5\205.

<sup>11</sup> Ibn Jurayj: Abdulmalik ibn Abdulaziz ibn Jurayj Umaviy Makkiy. Siqa, faqih, fazilatli shayx edi. Rivoyat qilishda mudallis (shayxlarini chalkashtirib rivoyat qiluvchi) va mursil (sahobani tashlab rivoyat qiluvchi) edi. 150 hijriy atrofida yetmish yoshdan o’tib vafot etgan. (Taqrubut tahzib. Ibn Hajar. 1\617).

<sup>12</sup> Ibn Shihob: Muhammad ibn Abdulloh Zuhriy. Madinaning yetti faqihlaridan biri, zamonasining eng taniqli hofizlardan bo’lgan. 51 hijriy tavallud topgan. Shomda yashagan. O’nta sahobani ko’rgan. U eng birinchi bo’lib hadis kitob yozgan zotdir. 124 yil vafot etgan. (Abulfaloh Abdulhay ibn Imod. Shajarotuz zahab fi axbori man zahab. – Bayrut: “Dorul ofoq”, 1986. 1\162. Zahabiy. Siyari a’lamun nubalo. 5\326).



tillo bilan mahkamlagan”, - dedi<sup>1</sup>.

Shofei mazhabi sohiblari tillo tish qo'ydirsh joiz, shuningdek barmoqlarning bir bo'g'ini kesilsa, o'rniga tillodan barmoq qo'ydirish mumkin deganlar. Qo'l yoki oyoq kesilishiga kelsak ularning rojih qovl (kuchli so'z)larida tillodan qo'l yoki oyoq qo'yish joiz emas deyilgan. Yana bir qovllarida joiz bo'ladi deyilgan. Lekin baribir birinchisi asahroq (sahihroq)dir. Chunki tillodan qo'yilgan qo'l va oyoqlar baribir ishlaymaydi. Shuning uchun uni qo'yishdan maqsad faqat chiroyli turish, ziynatlanish bo'ladi. Tish va barmoq bo'g'inlari esa, unday emas. Chunki ularni qo'yilgandan keyin ishlatiladi<sup>2</sup>.

Tibbiyot olimlari tishni davolashda tillo kerak ekani to'g'risida faqat kumush bilangina zaruratning oldi olinmasligi haqida quyidagi fikrlarini bildirganlar<sup>3</sup>:

A) Tillodan avval ham hozir ham tishlarni davolash va boshqa ishlarda foydalaniladi. Lekin avvalgi zamonlarda tillodan foydalanish bilan hozirda undan foydalanishning farqi bor. Qadimda tillodan deyarli boshqa narsalar aralashtirilmasdan foydalanilgan. Hozirda esa, tilloga boshqa ma'danlar ham aralashtiriladi.

B) Tillo tabiiy ma'dan bo'lgani uchun boshqa ma'danlarga qaraganda o'zida bir necha foydali jihatlarni qamraganligi bilan ajralib turadi. Ishlatishga qulay. Shaklga keltirish oson. Yemirilib ketmaydi. Chirimaydi. Og'izning ichiga moslashuvchan. Tibbiyotda tishlarni davolash uchun bunday keng tarqalgan boshqa mahsulot yo'q deyish mumkin.

C) Kumush esa, tillodan pastroq darajadagi metalldir. Chunki unda ayrim ayblar bor.

D) Tilloni asl holatida ishlatish tibbiyotda kam hollarda uchraydi. Ko'pincha tillo quymasiga kumush mis kabi metallar qo'shiladi. Lekin mahsulotning sifati yo'qolmasligi uchun tilloning miqdori ko'proq bo'ladi.

Shu gaplarga ko'ra asoslanib hozirgi kunda jumhurning va hanafiylardan imomaynlarning tishlarni davolashda tillodan ham foydalanish mumkin degan qarashlariga fatvo berilgandir. Unga ko'ra erkaklar ham ayollar ham muolaja uchun tillo va kumushdan birday foydalanishi mumkin bo'ladi. Zero mazhabboshi Abu Hanifadan ham buning zarari yo'qligi haqida rivoyat borligi aytib o'tildi.

Ammo muolaja uchun degan joyi ta'kidlidir. Chunki ayrim shaxslar tillo kumushdan hech qanday ehtiyoj yo'q o'rinlarda ham, birorta kasallik bo'lmagan vaqtda ham foydalanayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin. U ham bo'lsa, sog'lom tishlarni boshqalarga chiroyli ko'rinish uchun, ustiga tillo qoplatish yoki tillo tishlarga almashtirish holatlaridir. Bu ishlardan esa, muolaja emas, balki, ziynat qasd qilingani uchun mumkin emas degan ta'qiq o'z kuchida qoladi. Sog'lom tishlarni tillo yoki boshqa qimmatbaho toshdan yasalgan tishlarga o'zgartirish nafaqat erkaklarga, balki, ayollarga ham birday ta'qiqlangandir. Zero bu ish Alloh bergan xilqatni o'zgartirishdir. Ayollarga ziynatlanib yurishga ruxsat berilgani bilan, xilqatini o'zgartirishlari mumkin emasligi ta'kidlangandir.

#### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar:**

1. Shayx Nizom va Hind ulamolar jamoasi. Fatvoi hindiyaa. – Bayrut: “Dorul fikr”, 2009.
2. Burxoniddin Marg'inoniy. Hidoya sharhi bidoyatul Muftadiy. – Bayrut: “Darul-kutubul ilmiya”, 1990.
3. Badriddin Ayniy. Banoya fi sharhil hidoya. – Bayrut: “Doru-l-fikr”, 2012.
4. Yusuf ibn Abdulloh ibn Abdulbar. Al-istiy'ob fi ma'rifatil as'hob. – Bayrut: “Dorul jiyl”, 1992.
5. Sulaymon ibn Ash'as. Sunani Abu Dovud. – Bayrut: “Dorul fikr”, 2009.
6. Abu Iso at-Termiziy. Sunanu Termiziy. – Bayrut: “Dorul fikr”, 2010.

1 Ibn Sa'd. Tobaqotul kubro. 5\235.

2 Navaviy. Rovzotut tolibin. 2\262. Kichik shofei. Nihoyatul muhtoj. 3\91.

3 Salom Dovud Qiysiy. Mavoddus sayyia litaqniyil asnon. – Bag'dod: “Muassasatul maohidil fanniyya”, 1998. – B. 189-215.



## ИБРАТ МАКТАБИ

**Караманова Гулистан,  
Утемуратова Ханна,**

Бердақ номидаги Қорақалпоқ Давлат  
университети доценти, тарих фанлари номзоди;  
Бердақ номидаги Қорақалпоқ Давлат  
университети талабаси. Нукус шаҳри, Ўзбекистон.  
g\_karamanova@mail.ru

**Аннотация.** Мақолада қатағонлар тарихини чуқур тадқиқ қилиш баробарида Қатағон қурбонлари хотираси музейининг ибрат мактаби сифатидаги ўрни сўз этилади.

**Калит сўзлар.** Қатағон, музей, тарих, Ўзбекистон, Қорақалпоғистон, «пахта иши», сургун, кўчириш.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 октябрдаги «Қатағон қурбонларининг меросини янада ўрганиш ва улар хотирасини абадийлаштиришга доир кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» Ф-5598-сонли Фармойишида: «Дунёда глобал хавф-хатарлар кучайиб бораётган ҳамда миллий ўзликни англаш ва ҳақиқий тарихимизни тиклаш ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамият касб этаётган бугунги даврда мустабид тузум томонидан шафқатсиз қатағон қилинган давлат ва жамоат арбоблари, илм-фан, маданият ва санъат, адабиёт намояндаларининг, оддий касб эгаси бўлган минглаб юртдошларимизнинг номлари ва хотираларини абадийлаштириш, уларнинг жасорати ва матонати мисолида ёш авлодимизни Ватанимиз ва халқимизга муҳаббат ва садоқат руҳида тарбиялаш долзарб вазифа бўлиб қолмоқда» деб кўрсатилади. Ушбу Фармойиш асосида «Инсон - азиз, хотира - муқаддас» деган ғоя асосида барча туман ва шаҳарлар, маҳаллаларда аҳоли, айниқса, ёш авлодни мустақиллик ва адолат тантанаси учун курашган фидойи ота-боболаримизнинг хотирасига ҳурмат руҳида тарбиялаш, уларнинг жасорати ва ибратли фаолиятларини тарғиб этишга қаратилган маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этиш давом этмоқда.

2017 йил 31 августда Қатағон қурбонлари куни муносабати билан «Қатағон қурбонлари хотираси» музейида бўлган Президентимиз Ш.М.Мирзиёев: «Аждодларимизнинг Ватан тинчлиги ва озодлиги йўлидаги кураши бугунги кун ёшлари учун ибрат мактабидир», «хар бир вилоятда Қатағон қурбонлари хотираси музейининг филиалларини ташкил қилишимиз керак. Улар университет ва институтлар қошида ташкил этилса, айти муддао бўлади. Қатағон қурбонлари хотираси бўйича мактаб дарсликларидан махсус дастур асосида ўқитиш тизимини ҳам ишлаб чиқиш зарур», деган эди.

Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 22 ноябрь куни «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи ва ҳудудлардаги олий таълим муассасалари тузилмасида Қатағон қурбонлари хотираси музейларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори тасдиқланди. Қарорга асосан Бердақ номидаги Қорақалпоқ Давлат университетида ҳам Қатағон қурбонлари хотираси музейи ташкил қилинди.

Тарихчи олим, профессор Шарип Бабашев (1930-2014) томонидан Қорақалпоғистонда яшаётган корейс халқи вакилларига нисбатан кўзғатилган 59 жиноий иш архив манбалари сифатида топиб ўрганилган: 1937 йил 21 августдаги ҳукуматнинг жуда махфий «Узоқ Шарқдаги чегара туманларидаги корейс халқларини кўчириш» ҳақидаги қарори барча бошқариш тузилмаларига маълум қилиниб, корейсларни кўчириш 1938 йилнинг 1 январига тугатиш белгиланган. Қўнғирот, Муйноқ ва Хўжайли туманларига келувчиларнинг кўпайиб кетиши натижасида яна учта туман ажратилиб, Қуйбишев, Шаббоз ва Қипчоқ туманларига жойлаштирилди. 1938 йили Қорақалпоғистонга 1600 корейс хўжалиги, 7347 киши жойлаштирилган.

Қорақалпоғистон Ички ишлар Халқ Комиссариати (НКВД) органлари томонидан уйдирма материаллар асосида 1938 йилнинг февраль ойида корейс фаолларини қамокқа олиш бошланади. 1938 йилнинг 10 июлидан 16 август оралиғида 133 корейс қамокқа олиниб, уларга давлат чегарасини бузишда, Япония агентлари билан алоқа қилишда, япон ва хитой разведкаси учун жосуслик қилганликда ёлғон айбловлар қўйилди. Бундай айбловлар билан



12 июндан 26 июльга қадар Муйноқ туманидан - 28, Қўнғирот туманидан - 10, Хўжайлидан - 54 корейс қамоққа олинган. Қамалганларни тик оёқда туришга мажбурлаб, ўтиришга ҳам, ётишга ҳам рухсат берилмаган, оёқлари шишиб кетганликдан ҳолдан кетиб йиқилганларида, набватчи милиционер уларни ўзларига келтирарди [1; 324].

1939-1940 йиллардаги тоталитар сиёсат натижасида Ғарбий Украина ва Ғарбий Белоруссияда яшаётган 1,2 миллион поляклар қувғинга учради, улардан Қорақалпоғистонга 3130 киши кўчирилди. Кўчиб келган халқларга айниқса Беруний тумани аҳолиси яқиндан ёрдам қилди. Улар 3 минг полякни жойлаштириб нон-туз берди, етим қолган болаларни тарбияларига олди.

Иккинчи жаҳон уруши йилларида «душманга ёрдам берди» деган уйдирмалар билан минглаб қрим-татар, балкар, қалмоқ, ингуш, чечен, турк-месхетин ва бошқа халқлар мажбурий кўчирилди. 1943 йил 28 октябрдаги ҳукумат қарори билан Ўрта Осиё республикаларига қалмоқлар кўчирилиб, Қорақалпоғистоннинг Муйноқ туманига 224 қалмоқ оиласи келади.

Қорақалпоғистон тарихида шўролар ҳукуматининг ўрнаши билан унга қарши курашган маҳаллий халқ вакиллари қатағонга учради. Уларнинг кўпчилиги отилди, қолганлари элдан сургун қилинди. Бу Қорақалпоғистонда юргизилган биринчи қатағон бўлса, иккинчи қатағон 1928-1930 йиллари бўлди. Ушбу йилларда болшевиклар ўрта ҳол деҳқонларни, яъни деҳқонларнинг элдаги ўзига тўқ қисмини, кулак бойларни синфий душман деб ҳисоблаб, мол-мулкларини мажбурий тортиб олиш (конфискациялаш) сиёсатини олиб борди. Учинчи қатағон халқимизнинг маънавий бойлигини йўқ этишга йўналтирилди. 1928-1930 йилларда юртимизда лотин алифбосига ўтишга биноан болшевиклар барча араб алифбосида ёзилган китоб ва кўлёмаларни йўқ қилиш сиёсатини юргизди. Тўртинчи қатағон 1932-1933-йилларда бўлди. Бу «пахта масаласига», яъни Қорақалпоғистонда деҳқонларни аввалги анъанавий экинлари бўлган буғдой, жўҳори ва бошқа экинларни экишни тўқтатиб, унинг ўрнига пахта экишга мажбурлашга боғлиқ ўтказилди. Бешинчи қатағон 1934-1936 йилларда ёппасига колхозлаштириш сиёсатига боғлиқ юритилса, олтинчи қатағон 1937-1938 йилларда болшевикларнинг троцкийчил ва бухаринчиларни халқ душмани сифатида йўқотиш сиёсатига боғлиқ ўтди. Иккинчи жаҳон уруши тугаганидан сўнг ҳам қатағон давом этди. Бу еттинчи қатағон бўлиб, унда биринчи навбатда урушда асирга олиниб, юртга қайтиб келганлар, иккинчи навбатда бир қатор «нормасини бажармаган» деб айбланган минглаб «колхозчилар» Сибирьга сургунга ҳайдалди [2; 237-245].

Шўро ҳукуматининг қайта қуриш даврида ҳам қатағон чоралари амалга оширилди. 80-йилларда Қорақалпоғистонда «Пахта ишига» биноан бир неча юзлаган одамлар гуноҳи бўлиш - бўлмаслигига қарамасдан жазога тортилди. Улар орасида халқимизнинг фаровонлиги учун хизмат қилаётган фидойи эл азаматлари 90 дан ортиқ республика ва туман, колхоз раҳбарлари асосиз айбланиб қамоққа олинди [2; 326].

Қатағонлар тарихини чуқур тадқиқ қилиш, тарихий маълумотларни холис ва ҳаққоний ўрганиш мамлакатимиз мустақиллиги қандай оғир ва машаққатли курашлар билан қўлга киритилганини, бугунги эркин, озод ва обод ҳаётимизни асраб-авайлаб, қадрлаб яшаш кераклигини янада чуқур англашга хизмат қилади.

Куйидаги масалаларга эътибор қаратиш лозим деб ҳисоблаймиз:

1. Музейнинг бошқа университет ва институтлардаги тарих кафедралари билан ҳамкорликни йўлга қўйиши ва ривожлантириши; 2. Музей ходимларининг илмий муассасалар билан биргаликда экспедицияларда иштирокини таъминлаш; 3. Музейда илмий тўғарак ва клублар ташкил қилиш, уларга талабаларни жалб қилиш; 4. Музейлар бўлмаган ҳудудларда Қатағон қурбонлари хотираси музейларининг сайёр музей кўрғазмаларини ташкил қилиш, музей бюллетенларини чоп этиш.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. ҚР ЖКА. Ф.1. оп.121. д.6. л.75. //Бабашев Ш. Репрессии. Депортация. Преступления против человечества (По материалам истории Республики Каракалпакстан). – Нукус: Qaraqalpaqstan, 2014.

3. Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX әсирдиң екінши ярымынан XXI әсирге шекем. – Н.: Қарақалпақстан, 2003.



## МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХОНЛИКЛАРИДА ВАҚФ ЕРЛАРИ ВА УЛАРИНГ АХАМИЯТИ

**Курбанова Садоқат Жумабоевна**

Хоразм вилояти Шовот тумани

3- сон умумий ўрта мактабнинг

II-тоифали тарих ўқитувчиси

Тел: 998995018512

**Аннотация:** Ушбу мақола вақф ер эгаллиги тарихи ва унинг хонликлар ер эгаллигидаги аҳамияти ҳақида баён қилинади.

**Калит сўзлар:** Вақф, мулк, жоме масжидлари, мадрасалар, даромадлар.

Вақф ерлари мусулмон оламида кенг тарқалган бўлиб, асосан масжид ва мадрасаларга инъом этилган. Вақф сўзи арабча сўз бўлиб, тўхтатилган ёки чегириб қолинган ер деган маъноларни англатади. Тарихга назар соладиган бўлсак вақф ерлари Халифалик даврида яъни VII-VIII асрларда кенг тарқала бошлаган. Шунингдек мулкдорларнинг ўз мулкларини сақлаб қолиш ва ундан хотиржам фойдаланиш, турли хил босқинчиликлар ва мусодаралардан сақлаб қолиш сабабли сабабли пайдо бўлган.

Дастлаб вақф ерлари етим- есирларга, бева бечораларга ажратилган даромад манбаи ҳисобланган. Масжидлар ва зиёратгоҳлар ҳаста хона вазифасини ҳам ўтаганлиги сабабли халифалик давридаги саркардалар, савдогарлар, заминдорлар ўз ерларинини “ Оллоҳ” номига садақа қилишган. Бундай ерлар ғарб христиан дини мамлакатларида ҳам кўплаб учраган. Айниқса салиб юришлари даврида черковларнинг асосий даромадлари садақа қилинган ерлар ҳисобланган. Илк ўрта асрларда вақф ерлари садақа ёки инъом тариқасида булган бўлса кейинчилик аста узгариб борган. Дастлабки вақф қонунийлиги бўйича иккига бўлинган бўлиб қуйидагича кўринишга эга бўлган:

1. Қонуний вақф- мусулмон қонунига кўра вақф деб ажратган ерни шахс шу ерга эгалик қилишдан тўла махрум бўлган.

2. Оддий вақф қуриниши бўлиб- бунда вақф ерини ажратган шахс унинг авлодларига шу ердан тушган даромаднинг ярмига эгалик қилган.

XI асрга келиб вақф ерлари купайди ва аҳамияти ниҳоятда орта бошлади. Вақф ерларини бошқариш қонуний тусга эга бўла бошлади. Вақф ерларини тўғри тақсимлаш ва уни бошқариш учун мутавали мансаби жорий қилинди. Мутавали вақф ерларини ва ундан тушадиган даромадни тақсимлаб борган.

Марказий Осий хонликларида вақф ерлари уларни хужжатлаштириш билан қозилар шуғулланишган. Хива хонлигида вақф ерлари диний муассаса қабристон, хонақоларга қарашли ер мулклари бўлган. Бундай мулклар хон, амалдорлар ва айрим бой савдогарлар томонидан вақф қилиб берилган. Бу даромадлар диний муассасалар эҳтиёжи учун сарф этилган. Хонлик даврида яшаган уста Абдулло Болтаевнинг маълумотида кўра хонликдаги 170-175минг танобни ташкил этган. Суғориладиган ерларнинг 40% вақф ерларини ташкил этган. Масжидлар шаҳарнинг ҳар бир маҳалласида, хон саройлари ва мадрасаларда бўлган. Шунингдек вақф томонидан молиялаштирилиб турган Масжидқўвм булган. Бундай масжидқўвмлар давлат маъмурий бошқарув идораси сифатида ҳукумат қонунларини оммага етказишда катта рол уйнаган.

Хива хонлигидаги жоме масжиднинг вақфномасида шундай ёзилган: Вазир Абдурахмон 1788йилда Куйук том (ҳозирги Қўшқўпир туманидаги қишлоқ) ва Бекобод қишлоқларида масжидга вақф ерлари ажратилганлиги ва даромадни хайр-эҳсон ҳамда масжид заруриятига сарф қилиш ҳақида хабар беради.

Бухоро амирлигида ва аштархонийлар дарида вақф ерлари асосан тортиб олинган ерлар ҳамда амир томонидан инъом этилган ерлар ва йирик ер эгалари томонидан берилган ерлар бўлган. Энг катта ерлар масжидларга ва мадрасаларга берилган. Бухорода масжидда дарс берувчи мутавалидан тортиб то талабаларгача даромадни вақф ерларидан олишган. Қўқон холигида вақф ерлари мулк ерларидан ҳосил булган. Мулкдорлар ўз ерларини ярмини вақф ерларига утказганлар. Бундай ерлар авлоддан авлодга ўтиб улардан тушган даромадларини авлодлари фойдаланишган. Чунки мулкдорлар ерларга эгалик қилганда ерга эмас балки ундан тушадиган даромадга эгалик қилишган. Масалан: шу ерда жойлашган тегирмон,



ариқлар, каналлар, обжувоз, мойжувозлар, чиғирларга ва шундан тушадиган даромадларга эгаллик қилишган.

Туркистон генерал – губернаторлиги жорий қилинган вақт мулклари даромади Россия ҳукуматига ўтган. Натижада масжид ва мадрасаларга келадиган даромад тўхтаб қолган. Бутун Марказий Осиё бўйлаб вақт мулклари 1920 йилга келиб тугатилган. Натижада масжид ва мадрасалар тамир талаб ахволга келиб қолади.

Давлатимиз уз мустақиллигини қўлга киритган барча шаҳарларда тарихий ёдгорликларни қайта тамирлаш ишлари кенг олиб борилди. Айниқса Хива Бухоро Қўқон самарқанд шаҳарларида тарихий ёдгорликлар қайта тамирланди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Хива давлати ҳужжатлари. Йулдошев М. Т-1960 тП
2. Жалилов О. Хива мадрасалари ва уларнинг иқтисодий таъминоти ҳақидаги ҳужжатлар.// Шарқшунослик. Тошкент 1997 №8.
3. А. Вамбери. Путешествие по Средней Азии. М.,1865
4. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство. Тошкент. 2010г.
5. Хива минг гумбаз остида. Т.: Шарқ.1997



## ISO TERMIZIYNING ILMIY MEROSIGA DOIR

**Mahamatxonova Muxlisa**

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent  
islom instituti talabasi  
+998933849929

**Annotatsiya:** Tariximizning ilmiy xazinasi Iso Termiziyning ilmiy merosisiz tasavvur qilishimiz qiyin. Mazkur maqola Imom Termiziyning hayoti va faoliyatini, ilm yo'lida qilgan safarlarini qisqacha yoritib berib, yoshlarni ilm olishga targ'ib qiladi.

**Kalit so'zlar:** muhaddis, hadis, qiroat, fiqh, hasan hadis, sahih hadis, tasavvuf, muomolot, g'arib hadis, ro'za, zakot, haj.

Yurtimizda islom nuri munavvar bo'lgan asr insoniyat tarixida Sharq uyg'onishi davri deb ataladi. Ana shu davrda yashab o'tgan vatandoshlarimizning Qur'oni Karimni tafsir qilish va hadislarni sahih holatda ummatlarga yetkazib berish borasidagi xizmatlari beqiyos bo'lgan.

Ana shunday buyuk muhaddislardan biri - vatandoshimiz Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy bo'lib, bu kishi 824 yilda Termiz shahrida dunyoga kelgan. Imom Termiziyning hayoti va faoliyati har bir ilm ahli uchun ibrat olishga arzigulikdir. Termizdagi o'rta hol oilada dunyoga kelgan Imom Termiziy dastlabki ilmlarni o'z yurtidagi Termiz, Samarqand, Marv va Markaziy Osiyodagi olimlardan o'rganadi. O'z tengdoshlaridan aql-u zakovati, tirishqoqligi bilan ajralib turgan Termiziy qiroat, bayon, fiqh, tarix ilmlarini, ayniqsa hadis ilmini chuqur egallaydi. Imom Termiziy boshqa ulamolar singari erta yoshda emas, balki yoshlari o'ttizlarga yaqinlashganda ilm talab qilish uchun safarga chiqadilar va Makka, Madina, Iroq va Xurosondagi katta muhaddis olimlarning oldilariga borib bir qator ilmlarni egallaydilar.<sup>1</sup> Bu bilan Imom Termiziy ilm olishning erta - kechi bo'lmasligini islom ummatiga ko'rsatib berdilar.

Imom Termiy hadislarini to'plashga alohida e'tibor qaratdilar va bu yo'ldagi mashaqqatlarga, turli safar qiyinchiliklariga bardosh berdilar.

Imom Termiziyning zehni o'tkirligini, hatto Imom Buxoriydek zotlar e'tirof qilganlar. Bir kuni ilm majlisi bo'lib turgan vaqtda Imom Buxoriy u kishiga qarata: "Sen mendan foyda olganindan ko'ra men sendan ko'proq foyda oldim" - deganlar.

Arab tarixchisi Shamsiddin az-Zahabiyning (1274-1347) "Tazkirat ul-huffoz" ("Hofizlar haqida tazkira") nomli asarida quyidagi hikoya keltiriladi:

Abu Iso Muhammad at-Termiziy Makkaga hajga borayotganida yo'lda mashhur muhaddislar bilan muloqotda bo'ladi va ularning biridan hadislardan saboq berishini iltimos qiladi. U olim: "Bo'lmasa qog'oz-qalam ol", -degan. Aksiga olib shu payt at-Termiziy qalam topa olmagan va olim ro'parasida o'tirib eshitgan hadislarini yozib olayotgandek qog'oz ustida qo'lini harakat qildiravergan. Olim esa turli-tuman hadislardan yetmishga yaqinini hikoya qilgan. Shu orada olim qog'ozga qarab unda hech qanday yozuv yo'qligini ko'rgan va at-Termiziyning bu ishidan jahli chiqqan. At-Termiziy shunda bamaylixtir "Siz aytgan hadislaringizni yoddan aytib beraymi?", - deganu hozirgina olimdan eshitgan hadislarining hammasini birin-ketin takror aytib bergan. At-Termiziyning xotirasi kuchliligidan o'sha olim hayratga tushib, qoyil qolganini bildirgan.

Imom Termiziy fiqh, tarix, tasavvuf va hadis ilmiga doir yuzdan ortiq asarlar yozgan. Shu asarlarning ichida "al-Jome' as-Sahih" asari alohida e'tirof etilishga loyiqdir. Olimning mashaqqatli mehnatining mahsuli bo'lgan bu asar, o'zining bir qator foydali jihatlari bilan boshqa hadis kitoblardan ajralib turadi. "Sunani Termiziy", "al-Jome' al-Kabir" nomlari bilan ham yuritiladigan bu asarni Termiziy qarib oltmish yoshlarida, hadis ilmida katta tajriba orttirganidan keyin yozgan.<sup>2</sup> Bu asar o'z ichiga tahorat, namoz, zakot, ro'za, haj, muomolot va odob -ahloqqa mavzulariga doir hadislarni qamrab olgan bo'lib, unda hadis sanadida kelgan roviylarning holatlari, hadislarining turlari bayon qilingan. Jumladan, bu kitobda "sahih", "g'arib", "xasan" kabi turli hadislar bayon etiladi va bir hukm borasida ulamolarning tutgan yo'llari keltiriladi. Bu kitob Imom Termiziyning hadis borasida yozgan kitoblarining eng yaxshisi va foydalisi bo'lib, barcha toifadagi kishilar uni o'qib manfaat olishlari mumkin. Chunonchi, Imom Buxoriy va Imom Muslimning kitoblarini

<sup>1</sup> <https://shosh.uz/>

<sup>2</sup> Surxonmuslim.uz



ko'pincha o'qimishli kishilar tushunsa, "Sunani Termiziy"ni deyarli barcha toifadagi kishilar tushunadi va kitobni o'qish jarayonida hadislarining turlari haqidagi ma'lumotlarga ham ega bo'ladi.<sup>1</sup>

Imom Termiziy zamonidagi olimlar uning hadis ilmidagi xizmatlarini yuksak baholaganlar. Hadis imomlaridan biri Abdurahmon ibn Muhammad al-Idrisiy at-Termiziy hadis ilmida iqtido qilinadigan imomlardan biridir deb yozsa, Hofiz ibn Rajab : bilgilki, Imom at-Termiziy birinchilardan bo'lib o'z kitoblarda hadisni sahih, xasan va g'aribga bo'lganlar -deb ta'kidlaydi.

Ana shunday sermahsul umr sohibi muhaddis, olim Abu Iso at-Termiziy 892-yili 70-yoshida vafot etib, hozirgi Surxondaryo tumanidagi Sherobod tumaniga dafn qilinadi

2017- yil 14- fevralda Imom Termiziy va boshqa allomalarimizning meroslarini chuqur o'rganish maqsadida Termiz shahrida Imom Termiziy xalqaro ilmiy -tadqiqot markazi qurildi. Bu yerda Imom Termiziyning hayoti va asarlari chuqur o'rganilib uni xalqimizga yetkazish borasidagi ishlar olib borilmoqda.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Mamadaliyev S. Imom Termiziy. Tafakkur jurnali. 2009-yil, 60-bet.

<sup>2</sup> <https://lex.uz/docs/>



## ТЕМУР ҚАДРЛАГАН 12 ТОИФА

**Холисова Обида Рахимовна**

Наманган вилояти Норин тумани  
Халқ таълими бўлимига қарашли  
40-умумий ўрта таълим мактабининг  
тарих фани ўқитувчиси  
Телефон: +998975931969  
quyosh0817@gmail.com

**Аннотация:** Улуғ саркарда бобомиз Амир Темурнинг “Тузуқлар”и асрлар оша давлат ва жамиятни бошқаришда йўналиш, маслаҳат ва ўрнатқ олишга лойиқ асар сифатида ўз аҳамиятини йўқотмаганлигига оид ҳамда буюк давлат арбобининг давлатни бошқаришда доим эътиборда тутган 12 тоифа кишилари ҳақида қарашлар, мулоҳазалар ушбу мақоладан ўрин олган.

**Калит сўзлар:** Амир Темур, “Темур тузуқлари”, давлатчилик, дипломатия, ҳарбий маҳорат, бунёдкорлик, илму фан, санъат, меъморчилик, 12 тоифа кишилари, саййидлар, уламо, шайхлар, ақлли кишилар, кенгаш соҳиблари, амирлар, сипоҳлар, раият.

Бу йил буюк соҳибқирон, давлат арбоби, улуғ саркарда ва ўз замонасининг энг билимли ва доно кишиларидан бўлган бобомиз Амир Темур таваллудининг 685 йиллигини нишонлаш арафасида турибмиз. Буюк бобомизининг мамлакат, эл-улус, дину маърифат ривожини учун қилган хизматлари беқиёсдир. Унинг ҳаёти, амалга оширган ишлари, босиб ўтган йўли ва ҳаётий тажрибалари ҳақида, уларнинг дунё тарихи ва тамаддунидаги ўрни ҳақида ватандош олимларимиз ҳамда хорижий юрт олимлари жуда кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борганлар ва ҳамон давом эттирмоқдалар.

Буюк бобомизнинг давлатчилик ва дипломатия, ҳарбий маҳорат, бунёдкорлик, илму фан, санъат ва меъморчиликка оид билимлар, эл манфаатини ўйлаб иш тутиш билан боғлиқ ибратли фазилатлар соҳибини бўлганлиги буюк давлат арбобининг ўзи томонидан яратилган “Темур тузуқлари”да ўз исботини топган десак, муболаға қилмаган бўламиз.

“Тузуқлар”да буюк давлат арбоби, улуғ саркарда, ўз замонаси билимларини моҳирона эгалланган доно ҳукмдорнинг улкан ҳаётий тажрибалари баён қилинган. Бу фикрлар қарийб етти асрки ўз аҳамияти ва таъсир қувватини ҳамда долзарблигини заррача йўқотмай келмоқда.

Бугун соҳибқирон бобомизнинг ушбу “Тузуқлари”да келтирилган бугунги кунимиз учун энг аҳамиятли ўғитларидан бири, ўзи ардоқлаган, ишонган ва доимо эътиборида олиб юрган 12 тоифа кишилари ҳақида мушоҳада қилмоқчимиз. Бу 12 тоифа кишилари “Темур тузуқлари”нинг “Мамлакат ишлари тузуқи” бобида келтирилади.

Унда: “Салтанатимни ўн икки тоифадаги кишилар билан мустаҳкамладим. Салтанатим мартабасини бўлмиш тўра-тузуқлар ва қонун-қоидаларни ҳам шу ўн икки тоифага боғлаб туздим. Бу ўн икки тоифани салтанатим фалақининг ўн икки буржи ва давлатим корхонасининг ўн икки ойи деб ҳисобладим”, - дея келтирилади. Амир Темур фикрини давом эттириб, ушбу 12 тоифа кишиларни қуйидагича таърифлайди:

**Биринчи тоифа** – саййидлар, уламо, шайхлар ва фозилларни ўзимга яқинлаштирдим. Улар менинг саройимга доимо келиб-кечиб, мажлисларимни беэзаб туришарди. Диний, ҳуқуқий, ақлий масалаларни ўртага ташлаб, қимматли фикрлар билдиришарди. Ҳалол ва ҳаромга оид масалаларни мен улардан ўргандим.

**Иккинчи тоифа** – ақлли кишилар ва кенгаш соҳиблари, эҳтиёткор, қатъиятли арбоблар, кейинини ўйлаб, олисни кўриб иш юритувчи, кекса ва тажрибали кишиларни ҳос мажлисимга киритиб, уларнинг суҳбатларидан, ишларидан наф олиб, тажрибалар ҳосил қилардим.

**Учинчи тоифа** – дуоғўй кишиларни қадрладим. Хилватда улардан дуолар тилаб, истақларимнинг бажо этилишини ўтиниб сўрардим. Мажлисларда, йиғинлар, базмлар ва жанг майдонларида улардан кўп баракотлар топдим...

**Тўртинчи тоифа** – амирлар, сарҳанглар (форсча - “саркарда”), сипоҳ-солорларга мажлисимдан ўрин бериб, мартабаларини юқори кўтардим. Улар билан суҳбатлашиб, маслаҳатлар олдим... Сипоҳгарлик ишларида уларга ишониб кенгаш сўрар эдим.



**Бешинчи тоифа** – сипоҳ ва раият бўлиб, ҳар иккисига бир кўз билан қарадим. Сипоҳийлардан чиққан баҳодирлар, довюраларга махсус фахрли ўтоғ (ўтов), камар ва ўқдон тақдим этиб, мартабаларини кўтардим...

**Олтинчи тоифа** – ишончли, тўғри эътиқодли оқил-хирадманд кишиларким, давлат сирларини уларга очиб, салтанат ишлари бўйича улардан маслаҳат олишимга лойиқ эдилар. Бу тоифа кишилар билан сирдошлик қилиб, ўз махфий ишларим ва пинҳоний сир-асроримни ўшаларга топширдим.

**Еттинчи тоифа** – вазирлар, девон котиблари ва муншийларки, салтанатим саройини шулар билан безатдим. Буларни менга тобеъ мамлакатларни кўрсатувчи кўзгу деб билдим. Чунки, улар ҳар мулк-мамлакат, сипоҳ ва раият воқеаларини менга билдириб турдилар...

**Саккизинчи тоифа** – ҳақимлар, табиблар, мунажжимлар ва муҳандисларки, улар салтанат корхонасига ривож берувчилардир. Уларни ўз атрофимга тўпладим. Ҳақимлар ва табиблар билан иттифокда беморларни даволатар эдим. Мунажжимлардан сайёраларнинг қутлуғ-қутсиз кунлари, уларнинг ҳаракати ва осмонда айланишини аниқлаб олардим. Муҳандислар билан иттифокда олий иморатлар барпо этиб, боғу бўстонларнинг тарҳини чиздирардим.

**Тўққизинчи тоифа** – муҳаддислар, (пайғамбар, унинг авлодлари ва саҳобалари) ҳақида ривоятлар нақл қилувчилар ҳамда қиссахонлар бўлиб, уларни ҳам ўзимга яқинлаштирдим... Ҳар қайсисининг қиссалари ва хабарлари, ишлари ва сўзларини эшитиб тажрибам ортди. Оламда бўлаётган воқеаларни улардан эшитардим ва жаҳон аҳли аҳволдан хабар топар эдим.

**Ўнинчи тоифа** – машойихлар, сўфийлар, (Худони таниган) орифлардир. Уларнинг хизматларида бўлиб, суҳбатлар қурдим ва охираат фойдаларини олдим...

**Ўн биринчи тоифа** – касбу ҳунар эгаларидир; буларнинг ҳар тоифа ва синфидан бўлганларини давлатхонамга олиб келиб, ўз ўрдамдан ўрин белгиладимки, сафардаю турғунликда сипоҳимга керак яроқлар ҳамда бошқа жиҳозларни ҳозирладилар.

**Ўн иккинчи тоифа** – ҳар мамлакат ва диёр саёҳатчиларию мусофирларининг бошини силадим, улар турли мамлакатлардан менга хабар келтириб турдилар... Ўша мамлакатларда истиқомат қилувчи кишиларнинг ҳол-аҳволи, туриш-турмуши ҳақида менга хабар олиб келсинлар. Ҳар бир мамлакат ҳукмдорининг ўз раиятига қандай муомалаю муносабатда эканлигини аниқласинлар.

Буюк ажодимиз томонидан яратилган ушбу нодир асарда улкан мамлакатни бошқаришда таяниш лозим бўлган 12 тоифадаги фазилат ва касб-кор эгалари хусусида айтиб ўтилиши бежизга эмас, албатта. Чунки, давлатни бошқариш, бу – кўпчилик билан маслаҳатлашиб, кенгашиб, аҳоли манфаатларидан келиб чиқиб, кўшни ва жаҳон мамлакатларидаги аҳволни ҳам ўрганиб бориш орқали, узоқни ўйлаб амалга ошириладиган ишдир.

“Тузуқлар”ни ўқир экансиз давлатни бошқаришда, аҳоли, амалдорлар, давлат хизматчилари, ҳарбийлар, хорижий мамлакатлар билан алоқалар, уларнинг элчиларига муносабатлар, ички ва ташқи сиёсатда амал қилиш лозим бўлган тартиб-қоидалар ва энг асосийси инсон табиати, психологиясига оид жуда керакли билимлар моҳирлик ҳамда ҳаётий мисоллар орқали баён этилганига амин бўласиз.

Ўйлайманки, бугун давлат ва халқ хизматидаги амалдорларимиз “Тузуқлар”да берилган ҳаётий тажриба ва хулосалардан ўз фаолиятларида кенг фойдалансалар бундан фақат ва фақат фойда олур эдилар.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Темур тузуқлари. Т. “Ўзбекистон”. 2019.
2. Б. Аҳмедов. Амир Темур ўғитлари. Т. “Ўзбекистон”. 2007.



## МАКТАБЛАРДА ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ТАДҚИҚОТЛАР ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ҚўЛЛАШ БЎЙИЧА УСЛУБИЙ ТАВСИЯЛАР

Нурмаматова Анбар Насриддиновна,  
Навоий шаҳри 16-сонли АФЧЎИМ  
Тарих фани ўқитувчиси

**Мақоланинг қисқача мазмуни:** Мазкур мақолада умумтаълим мактабларида тарих фанини ўқитишда тадқиқотлар технологиясини қўллаш бўйича услубий тавсиялар ва тадқиқотлар технологиясидан фойдаланишнинг ўрни ва аҳамияти ҳамда мазкур муаммо юзасидан фикр – мулоҳазалар ва ёндашувлар масаласи очиқ берилган.

**Калит сўзлар:** Мактаб тарих фани, тадқиқотлар технологияси, ахборот технологиялар, Интернет, услубий тавсия, катта ва кичик лойиҳа, интенсив таълим, компьютер, виртуал кутубхона.

Бугунги кунда мактабларда тарих фанини ўқитишда ҳам янги педагогик технологиялар, ўқитишнинг интерактив усуллари қўллаш, дарсларни анъанавий, маъруза шаклида эмас балки жонли, қизиқарли тарзда ўтказиш давр талабидир.

Мактабларнинг ижтимоий гуманитар йўналишларида ватанисиз ва жаҳон тарихининг энг қадимги даврдан то бугунги кунгача бўлган даври чуқурлашган ҳолда ўрганилиши кўзда тутилган. Ушбу зиддиятли, мураккаб даврни ўрганишда таълимнинг янги технологияларидан фойдаланган ҳолда дарсларни ташкил этиш дарс самарадорлигини бир неча марта оширади.

Ўқитувчи ҳар бир дарсга таёргарлик кўрар экан, у дарсда ўрганиладиган ўқув материални ва уни ўқитишда қўлайдиган методларини, дарснинг ҳар бир бўлими ва ушбу бўлимда ўқитувчи ва ўқувчиларнинг бажарадиган ишларини аниқ режалаштириши ва режа асосида дарс машғулоти ўтказиши зарур. Ана шундагина дарсдан кутилаётган натижаларга тўлиқ эришиш мумкин. Бу жараёнлар ўқитувчидан чуқур билим, малака, ўз устида тинимсиз ишлаш ва изланувчанликни талаб этади.

Тарих дарслари ўқувчиларда Ватанисиз тарихига ҳурмат уйғотиш, уни чуқур ва холисона ўрганиш, ҳар бир тарихий давр ҳақида ўз тушунчасига ва фикрига эга бўлиш, тарихий воқеаларга ўз муносабатини эркин билдира олиш, жаҳон мамлакатлари тарихи ва уларнинг тараққиёт босқичларини ўрганиш ва уларни баҳолай олиш, таҳлил қилиш сингари кўникмаларни шакллантиради.

Эркин фикрлай оладиган ва ўз қарашларини эркин ифодалай оладиган ўқувчиларни тарбиялашда эса дарс жараёнида ва дарсдан ташқари ўқувчи бажарадиган мустақил ишларида тадқиқотлар технологиясидан фойдаланиш жуда қўл келади.

Тадқиқотлар технологиясининг асосий қуроли ўқув лойиҳалари ҳисобланади, чунки ўқитиш-ўргатиш жараёни ўқув лойиҳасини бажариш

жараёнида амалга оширилади. Таълим соҳасида лойиҳа методи бу – ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштирувчи, креативлик хусусиятини ривожлантирувчи ва шахсий фазилятларини шакллантирувчи дидактик воситадир. Ушбу технологиянинг асосини учта омил ташкил қилади: мустақиллик, ҳаракат ва натижа. Бу технология ўқитишни ҳаракат орқали амалга оширишни назарда тутди. Ҳар бир лойиҳа асосида қандайдир муаммо ётади ва уни ҳал қилиш жараёнида иштирокчиларда ўз олдига мақсад қўйиш, унга эришиш йўллари ишлаб чиқиш, муаммоларни ҳал қилиш, вазибаларни аниқлаш ва аниқ натижага эришиш кўникмалари шаклланади ва ривожланади.

Тарих дарсларида лойиҳалар технологияси деярли барча машғулотларда қўлланилиши мумкин. Танланаётган мавзулар аҳамиятли, қизиқарли ва ўқувчиларнинг ёшига қараб мураккаблашиб бориши зарур. Лойиҳани бажариш жараёнидаги ижодий фаолият ўқувчиларга билиш, ўрганиш ва мулоқот қилиш қувончини олиб келади. Лойиҳаларни бажариш жараёнида қуйидаги тамойилларга амал қилиш керак:

Биринчидан, лойиҳаларни бажариш жараёни ўқувчиларда мустақил фикрлаш ва ўз фикрларини эркин ифода этиш имкониятини берар экан, уларнинг ишини қаттиқ назорат қилиш ва чеклашдан қочиш, балки уларнинг мустақил фаолиятини рағбатлантириш лозим.

Иккинчидан, лойиҳаларни бажариш жараёни очиқ, ижодий жараёнлиги боис, уни



бажаришда қатъий режага ёпишиб олмасдан, фаолият давомида ўзгаришлар ва қўшимчалар киритишни ҳам инобатга олиш зарур.

Учинчидан, кўпчилик лойиҳалар яқка ўқувчилар томонидан амалга оширилиши мумкин, лекин уни бажаришда жамоа бўлиб ҳаракат қилиш аҳамиятлироқ бўлиб, ўқувчиларда ҳамкорликда ишлаш кўникмаларини ривожлантиради.

Хулоса сифатида шуни айтмоқчи эдикки:

- Тадқиқотлар технологияси ўз ичига ўқитишнинг барча интерактив методларини жамлаган ҳолда машғулоти ташкил қилиш имкониятини беради.

- Тарих дарсларида бу технологиядан дарсда ва дарсдан ташқари мустақил ишларни бажаришда фойдаланиш юқори самара беради.

- Ўқувчиларда турли ахборот манбалари билан ишлаш, уларни таҳлил қилиш, уларга танқидий ёндашиш кўникмаларини шакллантиради. - Ўқувчиларда ижодкорлик, яратувчанликни тарбиялайди.

- Ушбу технология ўқувчиларнинг келажакдаги тадқиқотчилик ишларига замин яратади.

- Лойиҳаларнинг тури ва бажарилиш муддатига кўра ҳар –хиллиги уларни доимий қўллаш ва тарихнинг ҳар бир бўлимини ўқувчилар томонидан мустақил ўзлаштирилишини таъминлайди.

- Умуман олганда бу технология шиддат билан ривожланаётган замонда яшовчи ва замон шиддати билан тенг ҳаракат қилувчи фаол, ҳар томонлама комил авлодни тарбиялашда жуда қўл келади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар:**

1. <http://www/ioso/ru/distant/projekt/>Технология метода проектов при обучении истории.
2. <http://www/ioso/ru/distant/projekt/> Зими́на Е.Г. Использование метода мини-проектов на уроках истории.
3. Бедерханова В. Проблемы Воспитания и развития личности. Совместная проектировочная деятельность как средство развития детей и взрослых-СПБ, 2001.
4. Сергеев В.С. Как организовать проектную деятельность учащихся: Практическое пособие для работников общеобразовательных учреждений.-М.: АРКТИ, 2004.
5. Alimova va b. O`zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) . T, "Sharq".2004.
6. <http://ru.wikipedia.org/w/index?title=Метод проектов&oldid=33864656> courses. Urc.ac.ru>ehg/u6-3.html.
7. Митрофанов К., Богоявленский Б. О конкурсах исследовательских работ // Первое сентября. История, 2000, № 7, с. 151-157.



## DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Samatova Yulduz Ubaydullayevna**

Navoiy shahar 8-umumta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

*Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.*

*Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.*

**Shavkat Mirziyoev**

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Insoniyat ko'p ming yillik taraqqiyoti davomida jamiyatni rivojlantirishning ta'lim, ilm va hunardan samaraliroq vositasini kashf qila olgan emas. Shu sababli ham ta'lim, ilm-fan har qanday jamiyat, millat va davlatning kelajagini belgilab beradigan, uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan muhim omildir.

Ta'lim jarayoniga alohida axborot muhitini kiritilishi, o'quv muassasaning kompyuterlar bilan ta'minlanishi, internet tizimiga ulanishi, ta'lim portallar tizimi hamda elektron ta'lim maxsulotlarini yaratilishi, o'qituvchilarni axborot-kommunikatsiya sohasida qayta tayyorlash, o'qitishning yangi pog'onasiga axborot texnologiyalar asosida bosqichma-bosqich o'tilishi uchun shart-sharoitlar yaratdi.

Zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilish faqatgina kompyuterlar tizimida elektron ma'lumotlar paketlarini yaratish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni elektron darslik, qo'llanma, video lavhalar, animatsiyalar, flesh maxsulotlar, trenajyor testlar va boshqalar. Albatta, elektron shakldagi o'quv material va qo'llanmalar kitob o'rmini bosmaydi va bosa olmaydi. Ular rasmiy matn yoki ma'lumotnomaga aylanishi kerak emas. Elektron shakldagi o'quv material va qo'llanmalar eng muxim bo'lgan tushuncha, ma'lumot va misollarni, inson miyasining imkoniyatlarini jalb etgan holda o'zlashtirish va eslab qolish jarayonlarini maksimal yengillashtirishlari lozim. Elektron darslik kompyuter orqali tushuntirish hamda inson miyasining imkoniyatlarini inobatga olgan xolda, xususan emotsional va tovush orqali xotirlash, mohiyatga ega bo'lgan tushuncha, xulosa va misollarni tushunib yetish, o'zlashtirish va xotirada saqlab qolishni maksimal osonlashtirishi zarur. Matnli qismi chegaralangan bo'lishi kerak, chunki kompyuterdan olingan bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish uchun kitob, qog'oz, qalam ham qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va uni zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan, jahon andozalari darajasidagi tizimni yaratish umumdavlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Ta'lim sifati mazkur tizimning holati va samaradorligini belgilaydigan mezon hisoblanib, ta'lim jarayonida erishilgan natijalarning me'yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarga muvofiqligi bilan belgilanadi. Ta'lim sifati nafaqat o'quv jarayoni natijalari, balki mazkur natijalarni shakllantiruvchi omillarni ham ifodalaydi. Bu omillar ta'lim maqsadi, ta'limni tashkil etish shakli, metod vositalari, o'qituvchilar tarkibi, salohiyati, pedagogik faoliyati, ta'limiy dasturlar va ta'lim texnologiyalari, resurslar va ulardan foydalanish shart-sharoitlari, ta'limning tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnik ta'minoti, axborot va uslubiy ta'minot, shuningdek, tarbiyaviy ishlar sifatidan iborat. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish esa ta'lim natijalari hamda mazkur omillar sifatini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish hamda uni hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan kompleks vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, ta'lim siyosatining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Dars - ta'lim beruvchi tomonidan yoshi va ma'lumoti jihatidan bir xil bo'lgan ta'lim oluvchilar guruhiga o'quv rejasi, o'quv dasturi talablari va qat'iy dars jadvali asosida ma'lum vaqt ichida bilim berish, malaka hosil qilish bo'yicha muayyan mashg'ulotdir. Zamonaviy ta'lim texnologiyasida darsni tashkil etishga doir qator umumpedagogik-didaktik talablar qo'yiladi. Bular:

- har bir dars texnologik jihatdan mukammal darajada loyihalashtirilishi;



- dars maqsad va vazifalarining aniq belgilanishi;
- darsda ta'lim vazifalarining tarbiya vazifalari bilan bog'liq bo'lishi;
- darsni o'quv dasturi, o'quv rejasi talabiga muvofiq tashkil etish;
- dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish;
- darsning tashkiliy jihatdan puxta belgilangan bo'lishi;
- darsning jonli, samarali va ta'lim oluvchilarga emotsional ta'sirli bo'lishi uchun ta'lim beruvchining turli xil zamonaviy va ilg'or ta'lim usullari, vositalari va ko'rgazmali qurollardan, axborot texnologiyalari va texnika vositalardan mohirlik bilan foydalana olishi;
- ta'lim beruvchining rahbarlik roli bilan ta'lim oluvchilarning faol bilish faoliyatini birga olib borish;
- ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik, shuningdek, mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olish;
- darsni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;
- darsda ta'lim oluvchi erkinligini ta'minlashga erishish;
- darsda ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash hamda o'z fikrini bayon etishiga undash va imkon yaratish;
- dars davomida ta'lim oluvchilar faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish, muammoli izlanuvchanlik layoqatlarini rivojlantirish;
- dars jarayonida o'qitishning jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini mos ravishda qo'shib olib borish;
- ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatlarining atroflicha nazorat qilinishi va adolatli darajada baholanishi.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Shu bilan birga amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi. Ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb etish imkoniyatini beradi.



## ХОРАЗМ ЎЗБЕКЛАРИНИНГ АНТРОПОЛОГИК ҚИЁФАСИ ҲАМДА ЭТНИК ЖАРАЁНЛАР

Алланазаров Сирожбек Бекчан ўғли

Урганч давлат университети Тарих факултети талабаси

E-mail: sirojbek.allanazarov@bk.ru

**Аннотация:** Мазкур мақолада қадимги хоразм ўзбекларининг антропологик қиёфасининг шаклланиши жараёнлари ҳақида сўз юритилади. Шунингдек, хоразмликлар элатининг вужудга келиши, археологик-этнографик тадқиқотлар натижасида олимлар томонидан билдирилган фикрлар атрофлича таҳлил қилинган.

**Калит сўзлар:** мигратсия, Тажан-Ҳерируд, Тозабоғёп маданияти, Ийрон Виж, Авесто.

Жаҳондаги барча халқлар ва элатларнинг шаклланиши узоқ тарихий даврни ўз ичига олади. Қайсидир халқларнинг яшаб турган жойларидан бошқа жойларга кўчиши ва турли халқлар билан қўшилиши ва сингиши натижасида янги бир этнос шаклланади. Археологик ҳамда антропологик маълумотлар бутун Марказий Осиё минтақасида инсониятнинг илк излари жуда қадим даврларга бориб тақалашини исботлаган.

Қадимги хоразмликларнинг қадимдан яшаган ҳудудлари масаласида қадимги юнон-рим тарихчиларининг асарларига мурожаат қилсак хоразмийлар парфияликлардан шарқда, куёш чиқиши йўналишида, яъни Парфия ва Бақтриянинг ўртасида жойлашганлигини ёзиб қолдирганлар. Ушбу маълумотларни келтирган тарихчи Гекатий хорасмийларни воҳа ва тоғолди ҳудудларида истиқомат қилганликларни айтиб ўтади. Яна бир юнон тарихчиси Геродот эса хоразмликларни барча томони тоғ билан ўраб олинган водийда яшаганликларини ёзиб қолдирган. Аммо бу тарихчиларнинг бу ерларда бўлмаганликларини ҳисобга оладиган бўлсак ушбу маълумотларни тўлақонлигича тўғри деб қабул қилиб бўлмайди. Баъзи бир манбаларда хоразмийларнинг дастлабки юрти Тажан-Ҳерируд ва Мурғоб воҳаси билан боғланади. Кейинчалик Доро I босқинидан кейин хоразмликлар қуйи Амударё ҳудудларига кўчирилган деган фикрлар ҳам мавжуд бўлиб, кўпчилик олимлар томонидан бу фикр илгари сурилган. Аммо М.Г.Воробева ҳамда И.Н.Хлопин сингари олимлар бу фикрларни инкор қиладилар. Хоразмийлар қуйи Амударё ерларига Ахамонийлар даврида кўчирилмаган. Аксинча улар Хоразм воҳасида шаклланганлар деган хулосани тақдим этганлар. Юнон географи Страбон ўзининг География асарида сак-массагет қабилаларининг уюшмаси ҳақида гапириб, бу уюшма таркибига хорасмийлар ҳам кирганлиги ҳамда уларнинг яшаб турган масканлари Хоразм деб аталиши ҳақида маълумотларни ёзиб қолдирган.

Қадимги хоразмликларнинг дастлабки яшаган ҳудудлари ҳақида гап кетганда, қадимий Авесто манбасига ҳам юзланиш зарур. Маълумки ушбу қадимий манбанинг Вандидод қисмида худо Ахурамазда томонидан яратилган сарзамин ва бирламчи юрт сифатида Ийрон Виж тилга олинади. Охириги йилларда айнан Авестода тилга олинган мазкур географик ҳудуд Хоразм воҳаси ва унга ёндош ҳудудларга тўғри келиши ҳақида илмий жиҳатдан асосланган маълумотлар келтирилди.

Археологик ва антропологик илмий тадқиқотлар Марказий Осиё минтақаси бир неча минг йиллар давомида мураккаб этник жараёнлар, катта ва кичик гуруҳларнинг аралашув макони бўлиб келганлигини кўрсатади.[6] Хоразмликларининг антропологик қиёфаси ҳам айнан ана шу этник жараёнлар натижасида шаклланган. Қадимги хоразмликларнинг антропологик қиёфаси ҳақида тўхталган пайтда шуни қайд этиш керакки, бу ердани авв V-IV асрларга оид бўлган антропологик топилма Султон увайс мазоркўрғонларидан топилган. Бу ерга кўмилган одамлар ўзбекларга хос кўринишга эга бўлиб европеид ирқига мансубдир. Таниқли антрополог олим Т.А.Хўжайов таърифлашича, ҳозирги Ўзбекистон ҳудудларига шимоли-ғарбдан Европанинг юқори палеолит, мезолит ва неолит даври аҳолиси, жанубдан эса жанубий евроид ирқига мансуб халқлар келиб ўрнашиши натижасида, айнан шу даврдан бошлаб европеид компонентлари шаклланган. Бироқ темир даврига келиб ишлаб чиқариш кучларининг ўсиши натижасида кенг ҳудудлар билан алоқалар янада кучаяди. Натижада аҳолининг антропологик қиёфасида ҳам ўзгаришлар содир бўлиб, монглоид ирқи компонентлари кучая бошлайди. Шундай қилиб мил.авв I минг йилликка келиб морфологик жиҳатдан монглоид элементлари юзага келган.



Тадқиқотимиз сўнгида шуни қайд этиб ўтиш жоизки, қадимги хоразмликларнинг миграция жараёнида ҳозирги ҳудудларга келиб қолган деган фикрларни бутунлай қайтадан кўриб чиқиш зарур. Шу билан бир қаторда қадимги хоразмликларнинг ирқий белгиларининг ўзгариши, шу билан бир қаторда этник жиҳатдан ташкил топишида турли этник гуруҳларнинг бу ҳудудларга таъсири натижасида шаклланган ва хоразм ўзбекларининг ҳозирги қиёфаси юзага келган. Хоразмликлар Марказий Осиёнинг ҳозирги Ўзбекистон ва қўшни Туркменистоннинг жанубий ҳудудларида палеолит давридан яшаб, кейинчалик бу ердаги деҳқончилик маданиятининг юксалиши натижасида илк давлатчиликка асос солганлар.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Толстова Л.С. Исторический фольклор каракалпаков как источник для изучения этногенеза и этнокультурных связей этого народа // Этническая история и фольклор. – М., 1977. С.-144.
2. Лившиц В.А. Древнейшие государственные образования // История таджикского народа. – М.: 1963. Т. 1. С.-152-153.
3. Воробева М.Г. Проблема «Большого Хорезма» и археология // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. С. 40–41.
4. Аскар Маҳкам. Авесто. Т.: Шарқнашриёти. 2001. Б.-107.
5. Хива минг гумбаз шаҳри. Т.: 1997. Б.-13.
6. Дониёров.А.Х., Бўриев.О., Аширов.А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи. Т.: Янги нашр. 2011. Б.-39.
7. Ходжаев.Т. Жанубий Орол бўйида яшаган қадимги халқлар. Т.: 1978. Б.-3-4.
8. Жабборов.И. Ўзбеклар. Т.: Шарқ нашриёти. 2008. Б.-16.



## TARIX FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Esanova Barno Qulmurotovna**

Navoiy viloyati Karmana tumani 4-umumiy  
o‘rta ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Tarix fanini yuqori darajada o‘rgatish o‘quvchilarga yurtimiz va butun dunyoning o‘tmishi haqidagi bilim va ko‘nikmalarni olishga yordam beradi. Bu fan o‘quvchilarning o‘tmish haqida o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqlarini oshirishi zarur. O‘qitish o‘quvchilarni zarur savollarni so‘ray olishga, tanqidiy fikrlashga, voqealarni tasavvur qilishga, dalillarni shakllantirishga, tushinib yetishga o‘rganishlarini ta’minlab berish zarur. Bugunki kunda ta’lim samaradorligini oshirishning maqbul yo‘llaridan biri bu darslarni interfaol metodlar orqali tashkil etishdir. Aynan tarix darslarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarni tarix faniga bo‘lgan qiziqishlari va qobiliyatlarini yuqori darajaga oshirishimiz mumkin. O‘quvchilar dars jarayonida mustaqil fikrlash, o‘z fikr mulohazalarini erkin bayon qila olish, muammolarni yechimini topish, murakkab vaziyatlardan dadil chiqqa olish va eng asosiysi o‘sha davr nuqtai nazaridan tarixiy tasavvur hosil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quvchilarga tarix darslarini mukammal va chuqur o‘rgatish orqali tarixiy tafakkur, tarixiy xotira, vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish va bugunki ta’limning eng katta muammolaridan biri bo‘lgan vatanparvar, komil va o‘tmishdan xulosa chiqarib kelajagini dadil qura oladigan yosh avlodni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Tarix fanini o‘qitishda o‘quvchilarda uchraydigan eng dolzarb muammolar quyidagilar:

1. Ism va joy nomlarini chalkashtirish
2. Raqamlarni eslab qolishning qiyinligi
3. Davrga oid aniq tarixiy tasavvurni shakllantira olmaslik
4. Xaritani tushinmaslik
5. Mustaqil izlanish olib borish
6. Mustaqil fikrlay olish

Ushbu muammolarni AKTdan foydalangan holda interfaol metodlar orqali bartaraf etish mumkin. Masalan, 5-sinflarda “Yurtimiz allomalari” mavzusi guruhlariga bo‘lib uya o‘qishga beriladi. Darsda videoproyektor orqali yurtimiz allomalari rasmlari slaydlar orqali o‘quvchilarga namoyish etilib “Rasmlar sehri” o‘yini tashkil etiladi. Rasmlar ostida hech qanday izoh yozilmaydi. O‘quvchilarning o‘zlari rasmlarni izohlab beradi. Bu o‘yin orqali o‘quvchilar allomalarni suratlarini eslab qolish va ular haqida bilimlarga ega bo‘ladilar. Bu metod o‘quvchilarni topqirligini va xotirasini mustahkamlashga yordam beradi.

Darsda yangi mavzuni izohlab berishda “Ko‘chma bozor” metodidan foydalanish orqali yaxshi samaradorlikka erishish mumkin. Bu metodda o‘qituvchi turli xil buyumlarni narxlari yozilgan holda “Ko‘chma bozor” tashkil etadi yoki buyumlarning rasmlari doskaga qadab quyiladi. O‘quvchilar yangi mavzuni guruhlariga bo‘linib o‘rganib keladi va o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob beradilar. Berilgan javobga qarab “Ko‘chma bozor” dan biror buyum xarid qilib oladi. Bu metod darsda o‘quvchilarni faolligini yanada oshirishda, kasbga yo‘naltirishda va boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘lashda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari bozor iqtisodiyoti tamoyillarini ahqab yetish imkoniyatini beradi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun 5-7 sinflarda “Oltin toj o‘yini” metodini qo‘llash yuqori samaradorlik beradi. Bunda o‘qituvchi katta o‘lchamdagi qog‘ozga bir necha zinlardan iborat taxt rasmini chizdiradi va rangli zar qog‘ozdan “Oltin toj” yasatadi. Ikki guruhdan bittadan o‘quvchi chiqib har bir zinadagi savollarga javob beradi. Qaysi o‘quvchi tezkor va aniq javob berib taxtga yetib borsa, o‘sha o‘quvchi “Oltin toj” sohibi bo‘ladi. Bugunki mavzuni yaxshi o‘zlashtirgani uchun ushbu o‘quvchimiz darsimizning “qiroli” yoki “qirolichasi” ga aylandi deb o‘qituvchi tomonidan e’tirof etiladi va sinf o‘quvchilari tomonidan olqishlanadi. Bu metod o‘quvchilarni fanga bo‘lgan mehrini yanada oshirishga va ruhiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘qituvchi darsda o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlik qilish, yo‘nalish berish, boshqarish, nazorat qilish, tahlil qilish va eng asosiysi xolisona baho berish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. “Ta’lim taraqqiyoti” jurnali .2018 yil 2-son
2. O‘. Q Tolipov va M. Usmonboyev “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari”. Toshkent .2006 yil



## TARIX TA'LIMIDA LOYIHA METODIDAN FOYDALANISH

**Mustapayeva Mexrigul Erkinovna**

Karmana tumani 4 umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Mazkur maqola ta'lim jarayoniga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda loyiha metodini tadbiiq etish va mazkur zamonaviy metodni tarix ta'limida qo'llanilishi natijasida o'quvchilarni mustaqil tadqiqotga yo'naltirishga qaratilgan.

Tayanch iboralar: ta'lim jarayoni, kadrlar tayyorlash, loyiha metodi, tarix ta'limi, mustaqil fikrlash, mustaqil tadqiqot, loyiha papkasi, muammoning yechimi

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimi eng avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy–texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv–tarbiya jarayoniga kirib kelishi oqibatida har bir inson uchun o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalaridan biri – loyiha metodidan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'limda o'quv loyihalarini amalga oshirish hozirgi paytda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod Yevropa va Amerika ta'lim tizimida keng tadbiiq qilingan bo'lib, u yuqori darajadagi samaradorligi bilan ajralib turadi. Loyiha metodi asosida o'qitish ta'lim oluvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda, bilimlarni mustaqil egallash hamda ushbu bilimlarni kelgusi hayotda tadbiiq etishga, mustaqil fikrlash, ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Loyiha deganda, o'qituvchining ilmiy rahbarligi ostida o'quvchi tomonidan bajariladigan intellektual-amaliy tUSDagi ijodiy topshiriq-vazifa tushuniladi. Loyiha metodi mavjud bilim va malakalarni amaliy qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmual o'qitish usullari amalga oshiradi. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o'qitish usullaridan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. Loyiha metodi – o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga yo'naltirilgan metod bo'lib, unda ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish usullari va faoliyatlarini ma'lum bir to'plam va bu ko'zda tutilayotgan natijalarni faoliyatning aniq natijasi ko'rinishida taqdim etadilar. Loyiha metodi bilim va malakalarni amalda qo'llash, tahlil va baholashni nazarda tutuvchi majmual o'qitish usuli sifatida tadbiiq etadi. Ta'lim oluvchilar yuqori darajada, boshqa o'qitish usulidan foydalanishga qaraganda, rejalashtirishda, tashkillashtirishda, nazoratda, tahlil qilish va vazifani bajarish natijalarini baholashda ishtirok etadilar. Loyiha ilmiy metodik jihatdan anglangan, umumlashtirilgan, turkumlangan va uni samarali qo'llash doiralari belgilangan bo'lishi kerak. O'quv vaziyatlarini loyihalashtirishda muammolilik, o'quvchilarning imkoniyatlarini maksimal tarzda ta'minlash, o'zaro hamjihatlikda o'qitish, mustaqil o'qish kabi tamoyillarga tayanishi lozim.

Loyiha texnologiyasi esa o'quv jarayoniga loyihalar metodi asosida maqsadli topshiriqlarni tadbiiq qilishga asoslangan faoliyat hisoblanib, faoliyat natijasi sifatida loyiha papkasi (loyiha portfoliosi) ya'ni, loyihani bajarish davomida to'plangan materiallar (hujjatlar, ma'lumotlar, ko'rgazmali vositalar)ning yig'ma jildi yuzaga keladi. Tarix ta'limida turli o'quv loyihalarini qo'llash ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi tomonidan taklif etiladigan loyihalar tarix fanidan an'anaviy sinf-dars jarayonidagi zerikarli holatni barataraf qilib, tarix fanini atrofficha o'rganishga qaratiladi. Loyihalar ilmiy-amaliy jihatdan puxta ishlanib, ulardan kutiladigan natijalar oldindan taxmin qilinadi.

O'quvchilar tarixiy manbalardagi ma'lumotlar, dalillarni ixtiyoriy, mustaqil o'rganish, izlanish orqali o'tmish hayotga kirib boradilar va o'tmish hayotni o'z tasavvurlarida qayta tiklab, beixtiyor o'tmishni hozirgi zamon bilan taqqoslaydilar. Manba va dalillarni loyiha asosida ko'ngilli va mustaqil o'rganayotgan o'quvchida yangi tasavvurlar paydo bo'ladi. Bu tasavvurlar asosida u yangi tushuncha hosil qiladi. Yangi tushunchalar o'z navbatida o'rganilgan ma'lum bir manbalar, dalillar va ma'lumotni umumlashtiriladi, shu asosda xulosalar chiqariladi. Demak, o'quvchi an'anaviy dars mashg'ulotidan farq qilgan holda loyiha metodi asosida yangi bilim oladi. Hozirgi maktab partasida o'tirgan o'quvchi katta bo'lgandan so'ng hozirgi katta yoshlilardan tubdan farq qiladi, ularning kelajakdagi faoliyati yanada mahsuldor bo'lib, uning jamiyatda yashashi uchun qulay, foydali shart sharoit yaratilishiga tayyor omil bo'ladi. Loyihalash ishlari



oldindan tayyorgarlik ko`rishni talab etadi, shuning uchun vazifa oldindan aniqlanadi. O`quvchilar ishlab chiqilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda o`zaro taqsimlashadi. Tarix o`qitish jarayonida loyihalash faoliyatini amalga oshirishda o`quvchilarning yoshga doir xususiyatlarni hisobga olgan holda loyiha metodidan foydalanish lozim.

Xususan, 5-sinf tarix darslarida o`quvchilar bilan birgalikda "Qadimgi odamlar izlaridan" mavzusidagi amaliy loyiha ishlab chiqilsa, ishning maqsadi qadimgi odamning yaratgan kashfiyotlarini og`zaki yoki illyustratsiyalar vositasida o`rganishdan iborat bo`ladi. 6-sinf tarix darslarida o`qib chiqilgan manbalar dialog, rasm solish grafikasi asosida surat yaratish, sahnalashtirish bo`lsa, 7-sinf tarix darslarida tarixiy shaxslarga (podshohlar, sarkardalar, olimlar va boshqalar) xatlar yozish, qahramon nomidan kundaliklar yozish, mustaqil asarlar yaratish mumkin. 8-9-sinf tarix darslarida esa, tarixiy voqealarni davom ettirish (qo`zg`olon, isyon, inqilob), shaxsiy taqlidiy tarixiy asarlar va prezintatsiyali loyihalar yaratiladi. 10-11-sinf tarix darslarida o`quvchilar izlanishlar natijasida amalga oshirilgan ishlar, annotatsiyali axborot resurslarini sharhlash, matnli materiallar, shaxsiy asarlar yaratish, tok-shou ko`rinishidagi ko`rsatuvlar, teatr tomoshalari orqali taqdimot o`tkazishadi. O`quvchilarga turli manbalardagi ma`lumotlar, faktlar, materiallarni o`rganish va umumlashtirish bo`yicha mavzular taklif etiladi. Loyiha metodida ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, qo`llanma, sxema, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma`limotlar yig`adi. Asosiysi, ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda ish reja tuzish ko`nikmasiga ega bo`lib, unda ish bosqichlari, ularga ajratilgan vaqt va texnologiyani ketma-ketlik, material va yordamchi vositalarni rejalashtirib, ish rejasida kichik guruh a`zolari orasida vazifalar taqsimlanib mustaqil harakat, mustaqil mushohada yuritish malakasiga ega bo`ladilar.

Hozirgi kunda hayotning barcha jabhalaridagi o`zgarishlar misli ko`rilmagan darajada tez ro`y bermoqda. Ma`lumotlar hajmi doimo o`sib bermoqda. Shuning uchun ta`lim tizimining vazifasi nafaqat ma`lum bir bilimlar berish emas, balki o`quvchilarni mustaqil ravishda bilimlarni egallashga o`rgatishdan iboratdir. Loyihalarni yaratish o`quvchilarga ma`lumotni mustaqil tadqiq etish va o`zlashtirish, olingan material bilan mustaqil ishlash ko`nikmalarini rivojlantirish uchun maksimal imkoniyatlarni taqdim etadi, bunda yoshlar tafakkur faoliyatining mahsuldor usullarini o`zlashtirish imkoniyatiga ega bo`ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O`quv uslubiy qo`llanma/ Innovatsion ta`lim texnologiyasi seriyasi. – T.: Iqtisodiyot. 2012. 145- bet.
2. Safarova R., Yusupova F., Toshova N., va boshqalar. O`quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo`naltirilgan o`quv vaziyatlarini loyihalashning nazariy-amaliy asoslari. T. Fan va texnologiya nashriyoti. 2012 yil 4- bet
3. Панченко С. Метод проектирования на уроках истории//.Общероссийское педагогическое экспертное Интернет сообщество.История. 2013 г. С-2
5. Ahliddinov R., Sotiboldiyev O. Umumiy o`rta ta`lim sifatini loyihalashtirish texnologiyalari // "Xalq ta`limi" jurnali. 2013. 6-son. 27-bet

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(3-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000